

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD. 03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**FAYZIYEVA XADICHA CHORIYEVNA**

**O‘ZBEK TILI BOYSUN-SHO‘RCHI GURUH SHEVALARINING  
LUG‘AT XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Termiz – 2023**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Fayziyeva Xadicha Choriyevna**

О‘zbek tili Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarining lug‘at xususiyatlari.....3

**Файзиева Хадича Чориевна**

Лексические особенности говоров Байсун-Шурчинской группы узбекского  
языка.....29

**Fayzieva Hadicha Chorievna**

Lexical features of the dialects of the Baisun-Shurchi group of the Uzbek  
language.....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....61

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**FAYZIYEVA XADICHA CHORIYEVNA**

**O‘ZBEK TILI BOYSUN-SHO‘RCHI GURUH SHEVALARINING**  
**LUG‘AT XUSUSIYATLARI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Termiz – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2412 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.guldu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Maxmaraimova Shoxista Tuxtashevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Mamatov Abdi Eshonqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Qilichev Bayramali Ergashevich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «3» may soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (138-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «27» aprel kuni tarqatildi.  
(2023 yil «27» aprel dagi 24 raqamli reyestr bayonnomasi).



**B.Umurqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, f.f.d., professor

**A.Eshmuminov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, f.f.d., dotsent

**Sh.Yoqubov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, o'rinbosari,  
f.f.n., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida dialektal leksikani o‘rganish tilning diaxron va sinxron holatiga aloqador masalalar – ba’zi so‘z, affikslarning tarixi va genezisini belgilashda, leksik me’yorni aniqlashda, terminologiya, orfografiya masalalarini hal qilishda, milliy tillarning shevalari atlasini tuzishda, shuningdek, ko‘p tomlik xalq shevalari lug‘atini yaratishda katta ahamiyatga ega. Tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli, shevashunoslik o‘z obyektini – *geografik belgilangan* birliklarini sintetik (fonetik, semantik, grammatik) jihatdan o‘rganishni maqsad qiladi. Binobarin, bugunga qadar shevashunoslik doirasida olib borilgan izlanishlar asosan madaniy-tarixiy *realiyalarni* sotsiolingvistik jihatdan o‘rganuvchi tadqiqotlar kesimida ahamiyat kasb etdi.

Dunyo tilshunosligida alohida lahjalardagi ma’lum lisoniy xususiyatlarni yoki ularning majmuasini tavsiflash va tahlil qilish; shevalarda turli korrelyativ variantlarda namoyon bo‘luvchi dialektal farqlar; alohida dialektlarni integral til tizimlari sifatida tavsiflash; ma’lum bir tilning barcha shevalariga xos xususiyatlarni aniqlash va sheva tilini adabiy tilga qarama-qarshi qo‘yish, sheva unsurlarining yashovchanligini sun’iy intellekt misolida ta’minlashga erishish, shevaviy matnlarni jamlash imkoniyatini beruvchi dialektal korpuslarni yaratishga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirda dialektlarni lokal-ijtimoiy guruhlariga ko‘ra farqlash va unifikatsiyalash (yagona shaklga keltirish) masalalariga nazariy hamda amaliy yechim topish sohaning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda aniq maqsadga yo‘naltirilgan izchil islohotlar olib borilishi natijasida milliy tilimizni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Buning natijasi o‘laroq, hozirgi o‘zbek adabiy tili hamda shevalari leksikasining turli sohalariga oid bir qator muhim tadqiqotlar bajarildi. Zotan, “Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim”<sup>1</sup>. Shu ma’noda milliy tafakkur hamda ko‘p yillik an’ana va qadriyatlarimizning yorqin ifodasi bo‘lgan o‘zbek tili ayrim shevalarining leksik xususiyatlarini o‘rganish, hozirgi taraqqiyot manbalarini yaxlit tadqiq etish tilshunosligimizdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 20 oktyabrdagi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони //http://lex.uz/docs/4561730

PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 4 oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” hamda Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi VMQ-222-son “2010-2020 yillarda Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** XXI asr boshlari o‘zbek tilshunosligi va jahon turkologiyasida shevashunoslikka doir qator tadqiqotlarda dialektlarning lingvistik, lingvoareal, lingvogeografik, lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganildi. Ular sirasida: Nuri Corakci, T.Gadjiaxmedov, L.Karpova, shuningdek, I.Darveshev, N. Murodova, N.Rahmonov, U.Ibragimova, Z.Ibragimova, Sh.Norboyeva, I. Quttimurodova, G. Adilova, A.Allaberdiyev, Z.Xolmedova, R.Yo‘ldoshev, Sh.Sheraliyev, A.Ergashevlarining ilmiy ishlarini tilga olish joiz.<sup>2</sup>

O‘zbek tilshunosligida shevalarning fonetik, morfologik xususiyatlariga nisbatan leksik jihatlari birmuncha kam o‘rganilgan. Shunga qaramay,

---

<sup>2</sup> Дарвешев И. Ў. Жанубий-ғарбий Наманган шевалари фонетик-фонологик хусусиятларининг ареал тадқиқи: Фил. фанлари номзоди дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти ўзбек шеваларининг лингвоареал талқини: Фил. фанлари доктори дисс. автореф. – Тошкент, 2006; Раҳмонов Н.С. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал-тадқиқи: Фил. фанлари фалсафа док-ри дисс. автореф. – Самарқанд, 2019; Ибрагимова У.Ю. Қорақалпоғистон Республикаси ўзбек шеваларида сўз ясалиши: Фил. фанлари фалсафа док-ри дисс. автореф. – Қарши, 2019; Ибрагимова З.Й. Қорақалпоғистон ўзбек шевалари қишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвогеографик тадқиқи: Фил. фанлари фалсафа док-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Норбоева Ш.Х. Хоразм шеваларидаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи: Фил. фанлари фалсафа док-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Қуттимуродова И.А. Қорақалпоғистон Республикаси Кўнғирот туманидаги козок шеваси: Фил. фанлари фалсафа док-ри дисс. автореф. – Нукус 2018; Адилова Г.А. Қорақалпоғистон этнографизмларининг лингвомаданий тадқиқи: Фил. фанлари фалсафа док-ри дисс. автореф. – Нукус, 2018; Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: Фил. фанлари фалсафа док-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2018; Холмедова З. А. Ўзбек тили Қарноқ шеваси лексикаси: Фил. фанлари номзоди (ф.ф.н) дисс. автореф. – Тошкент, 2015; Йўлдошев Р. Тошхөвүз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари: Фил. фанлари номзоди (ф.ф.н) дисс. автореф. – Тошкент, 2002; Шералиевич Ш.Э. Ўзбек тили Шарқий Хўжанд шеваларининг грамматик категориялари: Фил. фанлари номзоди (ф.ф.н) дисс. автореф. – Тошкент, 2001; Эргашев А. А. Андижон вилояти этнопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Фил. фанлари номзоди (ф.ф.н) дисс. автореф. – Тошкент, 2012; Nuri Çorakci Arap dilinde klasik lehçeler ve Kureyş lehçesi. 2015; Гаджиахмедов Т.И. Янгикентский говор кайтагского диалекта кумыкского языка: Автореф. дисс. к.ф.н. – Махачкала, 2005; Карпова Л. Л. Диалекты северного наречия удмуртского языка: формирование и современное состояние. – Ижевск, 2018.

F.Abdullayev<sup>3</sup>, A.Yu.Aliyev<sup>4</sup>, O.Madrahimov<sup>5</sup>, Sh.Shoabdurahmonov<sup>6</sup>, S.Rahimov<sup>7</sup>, A.Ishayev<sup>8</sup> singari taniqli olimlarning xizmatlarini munosib e'tirof etish lozim.

Surxondaryo viloyati shevalarini o'rganish yuzasidan Ye.D.Polivanov<sup>9</sup>, A.K.Borovkov<sup>10</sup>, V.V.Reshetov<sup>11</sup>, G'ozim Olim Yunusov<sup>12</sup>, Sh.Shoabdurahmonov<sup>13</sup>, A.Mamatqulov, S.Rahimov<sup>14</sup>, X.Alimurodov kabilarning ayrim fikrlari bo'lsa ham, hozirgacha Boysun-Sho'rchi, Jarqo'rg'on guruh shevalariga bag'ishlangan alohida maxsus ish yaratilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №25-1 "O'zbek tilshunosligi: badiiy nutq tahlili, antropotsentrik nazariya, etnolingvistika, korpus tilshunosligi" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** Surxondaryo viloyatining Boysun, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on hududlarida yashovchi mahalliy aholi dialektlarining leksik xususiyatlarini tekshirishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

o'zbek tilshunosligida xalq shevalarining lug'at xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlarga sharh berish;

Boysun-Sho'rchi guruh o'zbek shevalarining lug'at xususiyatlarini tekshirish; mazkur shevalarga xos birliklarni semantik guruhlariga ko'ra tasnif va tahlil qilish;

o'zlashgan (fors-tojikcha, arabcha, mo'g'ulcha, xitoycha) so'zlarning Boysun-Sho'rchi guruh shevalari leksikasiga ta'sirini tekshirish;

<sup>3</sup> Абдуллаев Ф. А., Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. I. Лугат. II. Хоразм шеваларининг таснифи, Тошкент, 1961, 346 б.

<sup>4</sup> Алиев А.Ю.Наманган диалекти лексикасидан кузатишлар. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент, 1966.

<sup>5</sup> Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент, 1973.

<sup>6</sup> Ўзбек халқ шевалари лугати. (Масъул муҳаррир: Шоабдурахмонов Ш.) — Тошкент: Фан, 1971. — 409 б.

<sup>7</sup> Рахимов С. Лексика узбекских говоров Сурхандарьинской области. АКД,Т,1974. Рахимов Р. Сурхондарё ўзбек шеваларининг таснифи масаласи // ЎТА,Т,1985.

<sup>8</sup> Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Т., 1977.

<sup>9</sup> Поливанов Е. Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Тошкент, 1933.

<sup>10</sup> Боровков А.К. Узбекско-таджикское двуязычие и вопрос взаимоотношения таджикско-узбекского языков. Ученые записки института Востоковедения АН СССР, Т. IV. – М., 1952; Боровков А. К. Вопросы классификации узбекских народных говоров. Известия АН УзССР. № 5. – Ташкент, 1953.

<sup>11</sup> Решетов В. В. Состояние и задачи узбекский диалектологии. Сб. "Вопросы узбекского языкознания". – Ташкент, 1954; Решетов В. В. Ўзбек шеваларининг классификацияси. ЎзТА журн. – Тошкент, 1966, № 1; Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978; Решетов В. В. Узбекский язык, ч.1. Фонетика. – Ташкент, 1959; Решетов В. В. К вопросу о транскрипции. Ученые записки ТГПИ им. Низами вып. 1. – Ташкент, 1947; Решетов В. В. О диалектной основе узбекского литературного языка. ж. "Вопросы языкознания" № 1. 1955.

<sup>12</sup> Ғози Олим Юнусов Ўзбек шеваларининг таснифидан бир тажриба (лотин алифбесидан). – Тошкент, 1936.

<sup>13</sup> Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962; Шоабдурахмонов Ш. Таянч шаҳар шевалари лексикасидан. ЎзДМ, 11. – Тошкент, 1960.

Маматқулов А.Шеробод район джловчи шеvasи.Номз.дис.Тошкент, 1960.

<sup>14</sup> Рахимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. (Фонетика, лексика). – Тошкент: Фан, 1985; Рахимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари лексикаси. Лингвистик тўплам. ТДПИ Низомий. Т. 113. – Тошкент, 1973; Рахимов С. Сурхондарё областадаги ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1974. Алимуродов Х. Қуйи Сурхондарё ўзбек қипчоқ шеваларининг морфологияси.Номз.дис.Тошкент, 1982.

Boysun-Shoʻrchi guruh shevalarining qadimgi turkiy, eski va hozirgi oʻzbek adabiy tiliga munosabati va taʼsirini oʻrganish.

**Tadqiqot obyekt**i va materiallari sifatida Surxondaryo viloyatining Boysun, Shoʻrchi, Qumqoʻrgʻon, Jarqoʻrgʻon tumanlarida olib borilgan kuzatishlar asosida video, audio tasmlarga yozib olingan materiallar, respondentlar va talabalar orqali yigʻib olingan anketa maʼlumotlari asosida toʻplangan materiallar, shuningdek, dialektologik-folklor ekspeditsiyalari materiallari olindi.

**Tadqiqot predmet**ini oʻzbek tili Boysun-Shoʻrchi guruh shevalari leksikasining lugʻat xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqot metodlari.** Ishda tavsifiy, qiyosiy, tarixiy-qiyosiy metodlardan foydalanildi.

**Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

oʻzbek dialektologiyasida ilk marta Boysun, Shoʻrchi, Qumqoʻrgʻon, Jarqoʻrgʻon tumanlaridagi j-lovchi oʻzbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar), y-lovchi oʻzbek shevalar (qorluq lahjasiga xos shevalar), ikki tilda soʻzlashuvchi shevalarning fonetik, semantik, leksik xususiyatlari ochib berilgan;

qadimgi yodgorliklar tili, qardosh va qardosh boʻlmagan tillar: qozoq, turkman, tatar, uygʻur, qoraqalpoq, fors-tojik, arab, moʻgʻul, xitoy, turk tillari, shuningdek, Boysun-Shoʻrchi guruh shevalariga tegishli äjä, çümäki, ädisär, äbgär, äññärä, äri, ällätävur, bavï:r, böbäk kabi leksemalar tadqiqi, Urxun-Enasoy yodgorliklari, M.Koshgʻariyning “Devoni lugʻatit turk”, A.Navoiy, Bobur, Xorazmiy asarlarida keltirilgan leksemalar bilan oʻzaro qiyoslangan holda etimologik tahlil etilgan;

Boysun-Shoʻrchi guruh shevalarigagina xos boʻlgan 1942 dan ortiq soʻz va iboralar aniqlanib, qarindoshlik, kishi aʼzolari, oziq-ovqat, hayvonot dunyosiga xos atamalar, oʻtov qismlari, uy-roʻzgʻor buyumlarining nomlari, kiyim nomlari, bezaklar, oʻyin turlari, turli marosimlarning nomini bildiruvchi soʻzlar, kasallik nomlari, oʻsimlik va daraxtlar, poliz ekinlari, kishi ismlari kabi semantik guruhlari aniqlangan;

Boysun-Shoʻrchi guruh shevalarining qadimgi turkiy, eski va hozirgi oʻzbek adabiy tiliga fonetik, grammatik, leksik, semantik, munosabati tekshirilib, oʻzlashgan (fors-tojikcha, arabcha, moʻgʻulcha, xitoycha) soʻzlarning Boysun-Shoʻrchi guruh shevalari leksikasiga lingvistik taʼsiri yoritilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oʻzbek tili Boysun-Shoʻrchi guruh shevalari leksikasi lingvistik xususiyatlarining yoritilganligi, tasniflanganligi, etimologiyasining aniqlanganligi oʻzbek dialektlarini hududiy yoki umumiy etnoleksikografik planda oʻrganuvchilar uchun muhim manba boʻla olishi asoslangan;

oʻzbek tili Boysun-Shoʻrchi guruh shevalari misolida asoslangan tadqiqot natijalari sohaga doir muhim ilmiy-nazariy maʼlumot berishi bilan birga til va madaniyat masalalarini oʻrganuvchi etnolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, antropotsentrik tilshunoslik kabi sohalar boʻyicha darslik va qoʻllanmalar yaratilishiga xizmat qilishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** xalq jonli muloqot nutqi, yaratilgan ilmiy lugʻatlardan olingan materiallar Surxondaryo viloyati etnografizmlari tabiatidan kelib chiqib izohlanganligi, nazariy maʼlumotlarni berishda aniq ilmiy

manbalarga tayanilganligi, metodik jihatdan mukammalligi, oldiga qo'yilgan muammoning aniq va yetarlicha asoslanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, jahon tilshunosligining yangi yo'nalishlari va tahliliy usullari asosida tadqiq qilingani bilan belgilanadi.

**IV. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** O'zbek tili Boysun-Sho'rchi guruh shevalari leksikasi lingvistik xususiyatlarining tasnifi, etimologiyasi, o'zbek dialektlarini hududiy yoki umumiy etnoleksikografik ko'lamda o'rganishga doir xulosalardan:

Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2019-2021-yillarga mo'ljallangan I-OT-2019-42 raqamli "O'zbek va ingliz tillarining elektron (inson qiyofasi, fe'l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug'atini yaratish" nomli innovatsion amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 5-sentabrdagi 04/1-2412-son ma'lumotnomasi). Natijada lug'at tarkibidagi o'zlashgan so'zlarning qadimgi turkiy, eski va hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatini aniqlashga doir nazariy bilimlarning mukammallashuviga erishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" ("Функциональное словообразование в современном каракалпакском языке") mavzusidagi fundamental tadqiqotda foydalanilgan (O'zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yildagi 17.01/125-son ma'lumotnomasi). Natijada Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining qadimgi turkiy, eski va hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati doirasida o'zlashgan (fors-tojikcha, arabcha, mo'g'ulcha, xitoycha) so'zlarning o'zbek shevalari leksikasiga ta'siri bilan bog'liq nazariy umumlashmalarning mukammallashuviga erishilgan;

**Natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek tili Boysun-Sho'rchi guruh shevalari leksikasi lingvistik xususiyatlarining tasnifi, etimologiyasi, o'zbek dialektlarini hududiy yoki umumiy etnoleksikografik planda o'rganishga doir xulosalardan:

davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2019-2021-yillarga mo'ljallangan I-OT-2019-42 raqamli "O'zbek va ingliz tillarining elektron (inson qiyofasi, fe'l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug'atini yaratish" nomli innovatsion amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022 yil 5 sentyabridagi 04/1-2412-son ma'lumotnomasi). Natijada lug'at tarkibidagi o'zlashgan so'zlarning qadimgi turkiy, eski va hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatini aniqlashga doir nazariy bilimlarning mukammallashuviga erishilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" ("Функциональное словообразование в современном каракалпакском языке") mavzusidagi fundamental tadqiqotda foydalanilgan (O'zR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022 yil 12-maydagi 17.01/125-son ma'lumotnomasi). Natijada Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining qadimgi turkiy, eski va hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati doirasida o'zlashgan (fors-tojikcha, arabcha, mo'g'ulcha,

xitoycha) soʻzlarning oʻzbek shevalari leksikasiga taʼsiri bilan bogʻliq nazariy umumlashmalarning mukammallashuviga erishilgan;

Boysun-Shoʻrchi guruh oʻzbek shevalari lugʻat xususiyatlarining xalq jonli muloqot nutqi hamda oʻzbek badiiy nutqida tutgan oʻrniga doir maʼlumotlardan Oʻzbekiston Respublikasi yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyat boʻlimi tomonidan tashkillashtirilgan “Til – millat koʻzgusi”, “Ona tilim – mangu barhayot” deb nomlangan tadbirlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyat boʻlimining 2022 yil 9 mart va 2022 yil 20 apreldagi maʼlumotnomalari). Natijada yuqori saviyali barkamol avlodni voyaga yetishtirish, yoshlar orasida til madaniyatini shakllantirish hamda zamonaviy axborot tizimida oʻzbek tilining imkoniyatlaridan foydalanish haqidagi targʻibot ishlari mazmuni mukammallashgan.

**Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning eʼlon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 22 ta ilmiy maqola va tezislar chop etilgan. Jumladan, Oʻzbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovadan iborat boʻlib, 162 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishiga mosligi koʻrsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Boysun-Shoʻrchi guruh shevalarining dialektal xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida Surxondaryo viloyat Boysun, Shoʻrchi, Qumqoʻrgʻon, Jarqoʻrgʻon va boshqa qishloqlar aholisi tarixi, etnografiyasi hamda Boysun-Shoʻrchi guruh shevalarining oʻrganilishi, shuningdek, Boysun-Shoʻrchi guruh shevalari (BShGSh)ning tasnifi, dialektal xususiyatlariga doir maʼlumotlar keltirilgan.

Tarixan hozirgi Surxondaryo hududida milodgacha va undan keyingi bir necha asrlar davomida kushonlar, baqtriyaliklar, sosoniylar, eftalitlar hoqonligi, abbosiyalar, gʻaznaviylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar va moʻgʻullar hukmronligi almashib turganligi maʼlum<sup>15</sup>. Mana shu davrlarda bu hududda

<sup>15</sup> Бартольд В.В. Чаганиан, соч. ч. III. – М., 1965; Ошанин Л. В. Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез ее народов. ч.II. – Ереван, 1958. – С. 139-356; Мелесон М. Е. Скульптура Айртам.

eroniyalar, arlotlar, arablar, sugʻdlar, moʻgʻullar yashagan va ular asrlar davomida mahalliy aholiga singishib, oʻzbeklashib ketganlar. Lekin ular ham mahalliy aholining antropologik tipi, urf-odati va madaniyatida, tilida maʼlum darajada iz qoldirgan. XII asrdan to XIX asr oxirigacha oʻzbek xalqi tarkibiga kelib qoʻshilib turgan urugʻ-qabilalardan: turklar, barloslar, qorluqlar, yuzlar, qoʻngʻirotlar, doʻrmonlar, qatagʻonlarni hozirgi Surxondaryo hududida uchratamiz<sup>16</sup>.

Manbalarda koʻrsatilgan koʻpgina etnonimlarning qadimiy nomlari Surxondaryo aholisi orasida to hozirgacha saqlanib qolgan<sup>17</sup>. Voha aholisining etnik tarkibini oʻrganish uchun 1928 yilda uyushtirilgan ekspeditsiya aʼzolari: etnograf L.P.Potapov, Gʻozi Olim Yunusov, folklorshunos Hodi Zarifovlar Sherobod va Boysun vohalarida yashovchi oʻzbek-qoʻngʻirotlar hamda ularning kelib chiqish tarixiga doir qiziqarli materiallar eʼlon qilganlar<sup>18</sup>. Afsuski, ularning ishlarida qoʻngʻirotlardan boshqa oʻzbek urugʻlari haqida maʼlumotlar juda kam.

B.X.Karmishevaning taʼkidlashicha<sup>19</sup>, 1928 yildan to 1954 yilgacha Surxondaryo viloyatiga etnolingvistik ekspeditsiya uyushtirilmagan, faqat 1954-55 yillarda K.L.Zadixin rahbarligida Qashqadaryo viloyatiga uyushtirilgan ekspeditsiya Surxon vohasi aholisining ham etnik tarkibini qoʻshib oʻrgangan, lekin bu materiallar nashr qilinmagan. Oʻzbek-qorluqlar boʻyicha 1955-58 yillarda K.Shoniyazov etnografik maʼlumotlar toʻplagan va ularning Surxondaryoga tarqalishi haqidagi maʼlumotlarni oʻz ishida qisqa bayon qiladi<sup>20</sup>.

1959 va 1961 yillarda Mikluxo-Maxlay nomidagi etnografiya institutining ekspeditsiyasi tarkibida boʻlgan ye.M.Pisherov va B.X.Karmishevalar Sherobod daryosining yuqori oqimida yashovchi oʻzbek urugʻlari, ularning etnografiyasi, urf-odatlarini, shuningdek, Surxondaryo aholisining urugʻ-qabilalarga boʻlinish tarixi haqida boy materiallar beradilar<sup>21</sup>. Jumladan, B.X.Karmisheva XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Shimoliy Buxoro aholisi tarkibida ushbu qabilalar boʻlganligini yozadi:

1. Qadimgi Movaraunnahr turk qabilalarining moʻgʻullar davrigacha boʻlgan tarixiy avlodlari va moʻgʻullar hukmronligi turk-moʻgʻul qabilalari, turk, qorluq, halachi, moʻgʻul, mirishkor, kaltatoy, barlos va boshqalardir. Muallifning yozishicha, oʻzlarini turk deb atovchi qabilalar Boysun bekligiga qarashli Halqayar (shevada *Halqajar*) daryosining yuqori oqimidagi Saroytosh, Turkqishloq, Inkobod, Alichabuloq va Yuqorimachay, Kattaqishloq; Sherobod vohasidagi Gegirdak (oʻzbekcha soʻzlashuvchi chigʻatoylar bilan birga) va Navbogʻ

---

Журн. "Искусство". – М.-Л., 1935. № 2. – С. 129-134; Вязьмина М.И. Раскопки на городище Айртам. Термезская археологическая экспедиция 1937-38 гг. Труды АН УзССР, сер. 1-2 т. – Ташкент, 1945. – С. 23-24; Пугаченкова Г. А. Сосуд из Термеза с вакхической сценой. Сб. "Вестник древней истории", № 1, 1951. – С. 131-133; цувайни "Таърихи цаҳонкушо"нашри. – М., Казвини, цилди аввал 1912. – Б. 101-102.

<sup>16</sup> Ваҳобов М.Г. Ўзбек социалистик миллати. – Тошкент, 1960. – Б. 43.

<sup>17</sup> Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т. I. Кн. I – М., 1952. – С. 6; Хаников И. Описание Бухарского ханства. СПб, 1943. – С. 28; Вамбери Путешествие по Средней Азии, СПб. – М., 1865.

<sup>18</sup> Потопов Л. П. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков "Кунград"- научная мысль. – Ташкент-Самарканд, 1930. № 1.

<sup>19</sup> Кармишева Б.Х. Очерки этнографической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976. – С. 15-16.

<sup>20</sup> Шониязов К. Узбеки-карлуки. –Тошкент, 1964.

<sup>21</sup> Кармишева Б.Х. Юкоридаги манба. – С.16-18.

qishlog'ida (chig'atoy, afg'onlar bilan aralash) yashagan. Turklarning bir urug'i hisoblangan kaltatoylar esa Surxondaryoning o'rta oqimi havzasida, ya'ni Yurchi, Cho'ntosh, Shayton qishloq, Jonbaxti, Jarqishloq, Qorashiq, Telpakchinor, Kultepada va Sherobod vohasidagi Oqqo'rg'on kabi qishloqlarida joylashgan<sup>22</sup>. Turk etnik urug'laridan biri barloslar To'polon daryosining yuqori oqimida, Ilonsoy va Chimtepa qishloqlarida; halachi urug'i Shoh qishloq (o'zbek-durmanlar bilan birga); Jarqo'rg'on atrofida (arab va turkmanlar bilan birga): Mirishkor – Denov bekligiga qarashli Qiziljar qishlog'ida yashaganlar. O'zlarini ipoq-qorluq deb atovchi qorluq urug'i Halqayar daryosining yuqori oqimida, ya'ni qorluq qishlog'ida joylashgan. Hozir esa bu etnik nom toponim sifatida Qorluq, Ipoq qishloqlari nomi bilan saqlanib qolgan. B.X.Karmisheva qadimgi o'zbek qabilalari tarkibiga kiritgan tog'chi urug'i<sup>23</sup> o'zlarini tog'chi-qatag'onlar deb ham yuritadilar. Ular Sherjon, Zarabog' qishloqlarida (tojik va o'zbek xo'jalari bilan birga), Xo'janqo, Bedota va Sherobod daryosining o'rta oqimi havzasidagi Xatak, Tangiduvol qishloqlarida, Machaydaryoning yuqori oqimidagi Qizilnavr, Ko'mirchi, Ko'ksoy, Kentala (bular chuvash-qatag'on) qishloqlarida yashaganlar. Tog'chi-qatag'onlarning bir qismi Denov bekligiga qarashli Kattavahshivor (o'zbekcha so'zlashuvchi chag'atoylar bilan birga) va To'xtamish qishlog'ida (turkman – yuzlar bilan) aralash yashaganligi aytiladi<sup>24</sup>.

B.X.Karmisheva tomonidan aytilgan qabila-urug'larning joylashish o'rni, asosan, to'g'ri bo'lsa-da, keyinchalik XX asr boshlarida ularning ko'pchiligi Surxon daryosi bo'ylariga, xususan, Denov, Sariosiyo, Termiz tumanlari hududlariga ko'chib kelishgan.

2. So'nggi qabilalarga muallif XV asr oxirida Dashti qipchoqdan Shayboniyxon tarkibida Movarounnahrda kelgan va XVI asr boshlarida bu yerda o'rinish qolgan o'zbek xalqining tarkibiy avlodlari: qo'ng'iroq, laqay, semiz, kesameri, yuz, do'rmon kabi urug'-aymoqlarini kiritadi.

B.X.Karmisheva urug'-qabilalarga bo'linmagan o'zbeklarga chig'atoy-o'zbek xo'jalarini kiritadi. Uning yozishicha<sup>25</sup>, chag'atoy-o'zbeklar Yuqori Machay (turk va hardurilar bilan birga), Laylagon, Qorabog', Poshxo'rt, Chag'atoy; Surxondaryoning quyi oqimida hozirgi Termiz tumani hududidagi Manguzar, Salovat; Denovning shimoli-sharqiy qismida joylashgan Cho'lba yir, Kattavahshivor; hozirgi Sariosiyo tumanining Gazarak, Dashnobod (aholisi o'zbek tilida so'zlashadi) qishloqlarida joylashgan.

Surxondaryo viloyati shevalarini o'rganish bo'yicha G'ozim Olim Yunusov, A.K.Borovkov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Mamatqulov, S.Rahimov, X.Alimurodov kabilarning ayrim fikrlari bo'lsa ham, hozirgacha BShGShga bag'ishlangan maxsus ish yaratilmagan.

<sup>22</sup> Кармишева Б.Х. Юкоридаги манба. – С. 73-80.

<sup>23</sup> Малов С. Е. Уйгурские наречие Синьзяна. – М., 1961. – С. 83.

<sup>24</sup> Кармишева Б.Х. Очерки этнографической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976. – С. 86-100.

<sup>25</sup> Кармишева Б.Х. Юкоридаги манба. – С. 80-89.

S.Rahimov nomzodlik dissertatsiyasida<sup>26</sup> Surxondaryo shevalarini ikki guruhga ajratadi. 1. y-lovchi (shahar tip) shevalar. 2. j-lovchi qipchoq shevalari. Bunda olim y-lovchi shevalarni ham ikki guruhga ajratadi. 1. Termiz-Sariosiyo. 2. Xatak-Xonim guruh shevalari.

Surxondaryodagi o‘zbek shevalari umumiy qipchoq lahjasining j-lovchilar guruhiga kiritiladi<sup>27</sup>. Ye.D.Polivanov, G‘ozi Olim, A.K.Borovkov, V.V.Reshetovlarning ishlarida Surxondaryo o‘zbek shevalari tasnifiga doir, kam bo‘lsa-da, munosabatlar mavjud. Jumladan, Ye.D.Polivanov tasnifida Surxondaryo o‘zbek shevalari eronlashmagan, ya’ni singarmonizm xususiyatlarini o‘zida saqlagan qipchoq shevalari guruhiga kiritilgan bo‘lsa<sup>28</sup>, A.K.Borovkov Surxondaryo o‘zbek shevalarini shayboniy o‘zbek yoki “j” lovchilar dialekti deb ataydi<sup>29</sup>. Bu dialektning asosiy xususiyatlarini izohlab, ularda unli fonemalar soni 8 ta va birinchi bo‘g‘indagi o‘zlashayotgan [ɟ] unlisi bilan 9 ta ekanligini ko‘rsatadi. Yana bir asarida Surxondaryodagi qishloq shevalarini a-lovchi gruppasining j-lovchi shevalariga kiritadi<sup>30</sup>.

G‘ozi Olim o‘z tasnifida<sup>31</sup> mazkur guruh shevalarini o‘zbek-qipchoq lahjasiga kiritgan. Bu lahjaga O‘zbekistonning Ohangaron vodiysi, Mirzacho‘l, Samarqand, Zarafshon, Buxoro atroflari, Xorazm, Andijon, Namangan, Qo‘qon, Qoraqalpog‘istonning Qipchoq, Chimboy, Qo‘ng‘irot tumanlari hamda Tojikiston, Qashqadaryo, Surxondaryoda yashovchi o‘zbeklar kiradi<sup>32</sup>. Olim: “Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G‘uzor, Boysun kabi shahar va qishloqlarda yashovchi turli xalqlar, turlicha so‘zlashuvchi tojik, arab va afg‘onlar qarlug‘ qabilasining bugungi jonli shevasida so‘zlashadilar”<sup>33</sup>, - deb yozadi.

Dialektolog S.Rahimov yuqoridagi tasniflar asosida<sup>34</sup> birinchi marta Surxondaryodagi o‘zbek shevalarini tasnif qildi<sup>35</sup> va ularning o‘zbek tilshunosligida tutgan o‘rnini ilmiy asoslab berdi<sup>36</sup>. Olim mazkur ishlarida BShGSh leksikasiga alohida to‘xtalmagan bo‘lsa-da, “O‘zbek tili Surxondaryo shevalari”

<sup>26</sup> Раҳимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. дис. – Тошкент, 1974.

<sup>27</sup> Решетов В. В. Ўзбек шеваларининг классификацияси. ЎзТА журн. – Тошкент, 1966. № 1. – Б. 29-42.

<sup>28</sup> Поливанов Е. Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Тошкент, 1933. – Б. 59; Боровков А.К. Узбекские говоры Наманганской области, Научные Труды ТашГУ им. В. И. Ленина, вып. 211. – Тошкент, 1963. – Б. 28-32.

<sup>29</sup> Боровков А. К. Вопросы классификации узбекских народных говоров. Известия АН УзССР. № 5. – Ташкент, 1953. – Б. 58-73.

<sup>30</sup> Боровков А.К. Новый узбекский алфавит. Журн. “Литературы и искусство Узбекистана” кн. III. - Ташкент, 1940. – Б. 91.

<sup>31</sup> Ғози Олим Юнусов Ўзбек шеваларининг таснифидан бир тажриба (лотин алифбесиди). – Тошкент, 1936. – Б. 21-25.

<sup>32</sup> Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978; Боровков А.К. Узбекские говоры Наманганской области // Научные Труды ТашГУ им. В. И. Ленина, вып. 211. – Тошкент, 1963.

<sup>33</sup> Ғози Олим Юнусов Ўзбек шеваларининг таснифидан бир тажриба (лотин алифбесиди). – Тошкент, 1936; Бартольд В.В. Термез, соч. ч, III. – М., 1965.

<sup>34</sup> Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. (Фонетика, лексика). –Тошкент: Фан, 1985; Раҳимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари лексикаси. Лингвистик тўплам. ТДПИ Низомий. Т. 113. – Тошкент, 1973.

<sup>35</sup> Семенов А. А. Происхождение термезских сейидов и их древня усипальница “Султан садат” ПТКЛА, год VIII, 1914. – С. 9-27.

<sup>36</sup> Раҳимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1974. – Б. 13.

monografiyasida Surxondaryo shevalarining ayrim leksik xususiyatlari haqida ma'lumot beradi<sup>37</sup>.

S.Rahimovning tasniflariga asoslangan holda Boysun, Sho'rchi, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on tumanlaridagi o'zbek shevalariga xos bir necha yillik (1980-2016) faktlarga suyanib, BShGShni quyidagicha guruhlariga bo'ldik:

**J-lovchi o'zbek shevalari.** S.Rahimov mazkur sheva vakillari o'zining til xususiyatlari jihatidan butun hudud bo'yicha bir xil emasligini qayd etib, qipchoq lahjasiga xos shevalarni ham hudud jihatidan ikki guruhga ajratadi: a) janubi-g'arbiy va b) shimoliy-g'arbiy. Birinchi guruhga Boysun tumanidagi Rabot, Yomchi, Pitov, Kofrun, Bandixon, Istara, To'da, Xo'jabulg'on, Munchoq, Tillakamar, Chilonzor, Kallamazor, G'o'rbak, Xo'jaulkan, Dashtig'oz, Pulhokim, Pudina, Sariqamish, Tangimush, Xomkon, Padang, Chorbog', Inkabod, Besh erkak; Jarqo'rg'on tumanidagi Minor, Oqtepa, Ismoiltepa, Qizilmozor, Cho'pon, Quyun, Boymoqli, Chinobod; Qumqo'rg'on tumanidagi Halaki, Azlarsoy, Elboyon, Yantoqli, Achamoyli, Qarsaqli, Xo'jamulki, Zarkamar, Lalmikor, Yangier, Bo'ston, Guliston, Qumqo'rg'on, Sayxon, Taypan, Paxtakor, Ulus kabi; shimoliy-sharqiy guruhga Boysun tumanidagi Gaza, Sho'rchi tumanining Ipoq, Jobi, Mo'minqul, Qarsagon, Obshir, Kakan, Mirshodi, Dalvarzin, Obodon, Jindibuloq, Katmon, Qizilgul kabilarni kiritadi<sup>38</sup>.

I.Mazkur shevalarning xarakterli xususiyatlari: 1) Bu shevalarda unli fonemalar soni barcha qipchoq shevalari uchun xos bo'lgan va V.V.Reshetov qayd etgan 9-10 unli fonemaga ega bo'lgan vokalizm sistemasi (a-ə, y-y, o-ø, и-ы, э(е) mavjud<sup>39</sup>. Shuningdek, lotin alifbosiga asoslangan yangi va an'anadagi o'zbek transkripsiyasida unlilar mosligi shunday namoyon bo'ladi: a-a, ä-ə, ā-ǎ, e-e, i-ь, i-ь, i:-и, i:-ы, u-y, ü-y, o-o, ö-ø, e-е. Yangi transkripsiyada undoshlar quyidagi harflar bilan ifodalanadi. Turkologiya transkripsiyasidagi γ (amaldagi g' o'rnida), š (amaldagi sh o'rnida), č (amaldagi ch o'rnida), j (amaldagi y o'rnida), η ( amaldagi ng o'rnida), ž (amaldagi j o'rnida) harflari olingan<sup>40</sup>.

Bu jihatdan BShGSh bir tomondan Yuqori Qashqadaryo, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon, Qoraqalpoq, Jizzax kabi shevalariga yaqin bo'lishi bilan birga, ulardan singarmonizmni saqlashi va turkiy tillarga xos til orqa a fonemasining mavjudligi bilan farqlanadi: **qašqa, avī:r, avzi:, ata** (ad. orf. *qashqa, og'ir, og'zi, ota*) kabi.

2) **ü** fonemasi – tor, old qator, lablangan unlidir: gül, kün, kül, üstäkār - üstä va sh.k. **ü** fonemasining qo'llanish doirasi ancha chegaralangan. Qaysiki, Boysun-Sho'rchi guruh shevalarida besh-olti so'zlardagina ma'noni farqlash xususiyatiga ega: tüş//čüş (tomdan pastga tush va tush payti, tush ko'rmoq), ür//ur (*huriš* – it xürdi va *urmāq* – “udarit”), püt//put (og'irlik o'lchovi, oyoq), ün (ovoz – üni

<sup>37</sup> Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. (Фонетика, лексика) “Фан” нашриёти, Тошкент. 1985.

<sup>38</sup> Раҳимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1974. – Б. 14-15.

<sup>39</sup> Решетов В. В. К вопросу о транскрипции. Ученые записки ТГПИ им. Низами вып. 1. – Ташкент, 1947. – С. 59.

<sup>40</sup> Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B.29.

chī:xmädi, ün – *unish*, o‘*shish*: *unmadi* va un – muka). BShGShda ü fonemasi mustahkam o‘rin olgan. Hatto yosh avlod talaffuzida ham til oldi ü bilan til orqa u tovushini farqlab olish mumkin.

**3) ö – o‘rta keng, oldingi qator lablangan unli. Ö** unlilari quyidagi so‘zlarni ma‘no jihatidan farqlaydi: köz-inson ko‘zi, kök- rang, köhül öz – özi:m barämän. **ö** va **o** unlilari quyidagi so‘zlarni ma‘no jihatidan farqlaydi: ot (o‘simlik, yem-xashak, olov), *öt* (fe‘l, jigar o‘ti), *tölä*(yer to‘la), *tola* (fe‘l), *bol* (bo‘lmoq), *böl* (bo‘lish, taqsimlash), *oñ* (o‘ng, o‘ng tomon), *öñ* (rang: köjlägi oñqip keti), *tor* (to‘r – setka), *tör* (uy to‘ri, to‘rt – 4), *or* (bug‘doy o‘rish), *ör* (soch o‘rdi, o‘rladi – *yuqoriladi*) kabi. Adabiy tildagi *to‘la*, *bo‘l*, *o‘ng*, *to‘r*, *o‘r* kabi omonimlar Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarida omonim emas.

Shu kabi: **4) ä//ye**: čelpäk (Chor.) – *chalpak*, sebät (Bog‘.) – *savat*, yengä (Bog‘., Gaz.) – *yanga* (kelinoyi), ejri – *ayri* (vilka), xälväjtär (Jind.) – *holvaytar*; **5) u>i** kijäv – *kuyov*, *bijil* (Boy., Sho‘r., Jar.) – *bu yil*, *i:ndaj demä* – *unday dema*; **6) u>o** xoržin (Boy.) – *xurjun*, Osmänjān – *Usmonjon*; **7) g>y**: süjäl – *so‘gal*, sijir – *sigir*, tūjün – *tugun*, tijirman – *tegirmon*, tūjmä – *tugma*, ijnā – *igna*; **8) p>v**: tob i:q – *to‘piq*, tāvup ke – *topib kel*; **9) So‘z** boshida **y** tovushi žlashadi, žoq – *yo‘q*, žol – *yo‘l*, žuldi:z – *yulduz*, žer – *yer*; **10) barcha** qipchoq shevalariga o‘xshash yuqori va o‘rta ko‘tarilish unlilari (**o**), (**ö**), (**ye**)ning (**ie-je**), (**üö-uo**) (**vö-vo**) tarzidagi diftonglashuvi mavjud: ienä //jēna – ona <sup>v</sup>örmäk - o‘rmak, <sup>v</sup>orman – o‘rmon, <sup>v</sup>örik – o‘rik, <sup>v</sup>oraq – o‘roq; **11) qipchoq** shevalariga xos xususiyatlardan biri, ko‘pincha, ikki bo‘g‘inli so‘z oxirida orqa qator (**q, k, g‘**) kabi undoshlar talaffuzda tushib qoladi: *ačč i:* (achchiq), *sari:* (sariq), *tari:* (tariq), *köpri:* (ko‘prik), *tiri* (tirik), <sup>v</sup>öli (o‘lik), *čüčchi* (chuchuk) kabi; **12) Minor, Boymoqli, G‘o‘rjak, Kallamozor, Istara** kabi qishloq shevalarida *-lar* ko‘plik affiksi fe‘llarni tuslaganda, II shaxsning ko‘plik formasi *-i:ñär, -ññär, -aq<sup>41</sup>* shakllarida ishlatiladi. Masalan, *keñär, bi:li:ñär, keliñär, aññär, keñizaq bariñizaq* kabi. Bu holat qolgan shevalar uchun xarakterli emas<sup>42</sup>; **13) qaratqich** kelishigining ko‘rsatkichlari: *-niñ, -ni:ñ, -di:ñ, -di:ñ, -ti:ñ*; jo‘nalish kelishigi *-gä, -dä, -ta, -tä -a, -ä, -nä -na*; o‘rin-payt kelishigi: *-da, -dä, -ta, -tä*; chiqish kelishigi: *-dan, dän, -tan, -tän, -nan, -nän* kabi. Chiqish kelishigidan so‘ng qo‘llanadigan *keyin*

ko‘makchisi Azlarsoy, Qumqo‘rg‘on, Qarsakli, Bandixon, Rabot kabi qishloq shevalarida kuchli fonetik o‘zgarishga uchraydi va affiks holiga kelib qoladi. Mas.: *kegänänkej, ayanänkej, ajtqanankej*<sup>43</sup>; **14) edi** to‘liqsiz fe‘li bilan ishlatiladigan sifatdoshning *-r, -ar* bilan yasalgan shakli *kegi:či:di:m, ajtgi:či:di:m* (Boy.) tarzida qo‘llanadi; **15) aniq** hozirgi zamon fe‘lining affiksi *-jöp: i:šläjöpän, i:šläjöpän,*

<sup>41</sup> Алимуратов Х. Куйи Сурхондарё ўзбек кипчоқ шеваларининг морфологияси: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1982.

<sup>42</sup> Раҳимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1974. – Б. 18.

<sup>43</sup> Раҳимов С. Юкоридаги манба. – Б. 18.

i:šlājāpti. Aniq hozirgi zamon fe'lining bu shakli qorluq lahjasiga kiruvchi hamma y-lovchi shevalarda va qipchoq shevasiga kiruvchi ayrim j-lovchi shevalarda uchraydi; **16)** *sī:jāqli//sijaxli:j* – ko‘makchisi qipchoq shevasiga xos j-lovchi shevalarda uchraydi. Bu ko‘makchi so‘z qoraqalpoq tilida *sajaqli*, qoz. *sī:jaktī:*, qirg‘. *sijaktüü* shaklida qo‘llanadi. Bizningcha, bu so‘z BShGShga qoraqalpoq shevalaridan o‘tib o‘zlashgan bo‘lsa kerak; **17)** kuchaytiruv va ta'kid yuklamasi -*ku, -kü -qu, -vā, -qojī:n, -γā, -γājī:n: ajti:mqol/aytdim-ku; kordī:η qujī:n //ko‘rding -ku; -da, -dagin, -tagin, -dayī:n, -tayī:n* tarzida qo‘llanadi. Bārattayī:n qajtti: – *bordi-da qaytdi, k:irddagin qajtti:* – kirdi-da qaytdi//kirdi-yu, qaytdi. Mägäzi:ngä ki: rddägin hišti:mä omaj qajtti. Bu yuklama qirg‘iz adabiy tilida *-dayī:* shaklida ishlatiladi; **18)** bu shevada ham boshqa qipchoq shevalaridagi kabi adabiy tildagi *ham, bilän* bog‘lovchilari alohida ishlatilmaydi, ular har doim o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shilib ishlatiladi va ular o‘sha so‘zlarning qanday tovushlar bilan tamom bo‘lishiga qarab, *-jäm//-jam, -pän//-pan, -men//-män* kabi shakllarida uchraydi: *senäm memmi:näm bārasämmä*; **19)** shevada bog‘lovchilarning *nekin, tayī:, jānā, gänädä, harzamānda, gänā gänädä, gāji:dä, čünki:, šon:iñiči:n//šhoniči:n, arī:, gā-gā, bāzi:dä* kabi shakllari uchraydi; **20)** adabiy tildagi *va, hamda, biroq, ammo, dam-dam, tufayli, negaki, zeroki, madomiki, go‘yoki, ya’ni* kabi teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar uchramaydi; **21)** *faqat* ko‘makchisi *paqat, qurī:, tölkä* (rus. “tolko” – *faqat*) shakllarida ishlatiladi; *singari* ko‘makchisining o‘rnida ravish yasovchi *-dāj, -dājīn, -dajčaqi:n* affikslari ishlatiladi.

II. BShGShning leksik boyligi umumxalq o‘zbek tilining asosiy lug‘at fondi va lug‘at tarkibidagi so‘zlardan tashkil topgan. Mas.: *ājā* – kaft; *čümāki:* – amakivachcha; *ādi:sār* – *albatta, taji:n; āññārā* – ekindan bo‘shagan maydon; *āri:-jā, jāki:*, *ällätāvur* – *allanechuk, allaqanday; bōbāk* – chaqaloq; *bōtan* – tuhmat, bo‘hton; *bermāñ qarañ* – bu yoqqa qarang; *büvma* – xotin-qizlarning yoqasiz ko‘ylagi; *mejmän či:bi:n* – katta qora pashsha; *daqqi:* – mahmadana; *kōlli:k* – otulov (transport); *či:bi:č* – birinchi marta tuqqan echki; *kögän(ko‘ganlamoq)* singlarilarni misol qilish mumkin.

**Qarluq shevalarida.** To‘liq progressiv assimilyasiya: *ld > ll: ālli:gā* – oldiga, *kelli:* – *keldi;* *pm > pp: keljāppi:z* – *kelyapmiz, barjāppän* – *boryapman.*

So‘z formalarining tortilishi: *bārājdi:m* – *borar edim, ke* – *kel, jāz vā* – *yozib ol* va b. Hozirgi zamon davom fe’li: *kelā:jatüptü* – *kelayapti, bāra:jätuptu* –

*boryapti*, *bārājti*: – *borayapti*, *kelä:jävsiz* – *kelajapsiz*; 2. I shaxs ko‘plik affiksi – *mi:z* qo‘shilganda, *bāravuz* – *boramiz*, *ajtavuz* – *aytamiz*; II shaxs ko‘plik affiksi – *ni:z//i:ni:z* tarkibidagi *n* undoshi *g//g‘* bilan almashadi: *yeksagi:z* – *eksangiz*, *barsayī:z* – *borsangiz*<sup>44</sup>; 3. Katta avlod sheva vakillarida sanashning *beš ji:gi:rmä* – 100, *üč kām sāksän* – 77, *jekkombes* – 30, *ontör jüssöm* – 1400 so‘m kabi xususiyatlari uchraydi; 4. Leksik jihatdan ham bu shevaning o‘ziga xos farqli xususiyatlari mavjud. Adabiy tildagi kurak suyagi qipchoq shevalarida *palbayar*, qarl. *Pālvi:n* (Xatak); qip. *lagan*, qarl. *xamī:rtavaq* (xamir qiladigan katta tog‘ora); qipch. *körpāčä*, qarl. *gi:rdixanä*; qipch. *toppa*, qarl. *pi:špi:ldi:q//ši:lpi:ldāq*, *bešbarmāq* (ovqat nomi); qipch. *gelägāj*, qarl. *kelägāj* (ovqat nomi); qipch. *bī:.*, *lamī:q*, qarl. *bulamaq* (ovqat nomi).

**Ikki tilda so‘zlashuvchi (bilingv) shevalar.** Bu sheva vakillari Boysun shahri markazida va unga yaqin bo‘lgan Gaza, Bog‘bola qishloqlarida yashaydilar. Bu qishloqlar aholisining so‘zlashish tarzi boshqa sheva vakillari tilidan tubdan farq qiladi. Ular ikki tilda so‘zlashadilar. Mazkur shevaga xos interferensiya belgilari haqida S.Rahimov ham ma‘lumot bergan bo‘lishiga qaramay<sup>45</sup>, ba‘zi farqlarni aytishimiz mumkin:

1. Shevada sonor undoshidan keyin kelgan **ch** jarangli tovush **j** kabi talaffuz etiladi: *tinch* – *ti:nj*, *tinchlik* – *ti:njli:k*, *burchak* – *burjak*, *uchburchak* – *üčbürjak* kabi; 2. **x** fonemasi – frikativ, jarangli, chuqur til orqa undosh bo‘lib, so‘zlarning barcha bo‘g‘inlarida uchraydi: *xāl*, *xel*, *xeš-tabar*, *mexča*, *mex*, *gülmex* kabi; 3. *u*, *shu*, *bu* olmoshlari bilan shakllanadigan *u yerda*, *shu yerda*, *bu yerda* kabi ravishlar *örgä*, *šergä*, *bergä* tarzida aytiladi; 4. So‘zlovchining aytilgan fikri yoki ish-harakatning bajarilishiga bo‘lgan ishonchni bildiruvchi modal so‘zlar: *albatta* – *älvättä*, *šubhasiz* – *bešüpha*; taxmin-tusmolni bildiruvchi modal so‘zlar: *ehtimol* – *ye:timäl*, *apti:dän*, *mabādā*, *mägäräm* kabi talaffuz qilinadi.

Mazkur bobda o‘rganilayotgan hudud shevalarining leksikasi boshqa shevalar va adabiy tilda uchramaydigan, faqat shu shevaning o‘zigagina xos bo‘lgan so‘z hamda iboralardan iboratligi: *üjrüm* (Boy., Sho‘r.) – 1. suv aylanasi, girdob; 2. mollar podasi; 3. “oziq-ovqat” ma‘nosida, bir uyrum yupqa (tayyorlangan yupqalarning bir uyumi yoki dastasi); *meñ* (Chor.) – katta qora xol (agar tug‘ilgan chaqaloqlarda katta qora xol bo‘lsa ismlarini ham shu tarzda ataydi); *azmax* (Kof.) – yo‘ldan adashmoq, yomon yo‘lga kirmoq, buzilmoq; *dolī://žalä*(Ink., Chor., Pad.) – do‘l (grad); *alqī:ndī://alqundī:* (Sho‘r., Boy.) – ishlatilib tugab kichik bo‘lib qolgan sovun (sol., qipchoq shevalarida *alqundī:* : Toshkent shevasida *älqindi*(O‘z XIII, 210); Qo‘yi Qashqadaryo shevalarida *älkändi//älqindi* (Qqsh, 206); Urxun-Enasoy yodgorligida *alqun* – kuchsizlanish, kamayish (Yept., 357), DLT är al *kī:ndī:* – odam o‘ldi<sup>46</sup>; qadimgi uyg‘ur tilida *alqin* – tugash, yo‘qolish; qirg‘iz tilida *alqī:ndī:* – sovun yoki yog‘ qoldig‘i<sup>47</sup>, *olqindi* so‘zi <alq + -i: + -n + di > *älqī:ndi*

<sup>44</sup> Ғози Олим Юнусов. Ўзбек шевалярининг таснифидан бир тажриба (лотин алифбесиди). – Тошкент, 1936; Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. – М., 1959.

<sup>45</sup> Семенов А. А. Происхождение термезских сейидов и их древняя усыпальница “Султан садат” ПТКЛА, год VIII, 1914. – С. 24-27.

<sup>46</sup> Абул-гази Бахадирхан. “Родословное древо тюрков, Саблунов Г.С. таржимаси, Казань, 1906. – С. 253.

shaklida hosil bo'lgan); *kalās//kältākesāk//kasartki//kesartki*: (Shoʻr., Boy., Jar.)//*kasartk*: (Qum.) – kaltakesak: *jeski*: čalduvällärdä *kalās* kop boladi (sol., DLT *kelar* – kaltakesak, “Tarjumon”da *kälāz*<sup>48</sup>, ozarbayjon tilida *kälāz* – echkiemar, kaltakesak turi, Vorzob shevasida *kelas* – kaltakesak turi, yoqut tilida *külgāri*, *külbār* – kaltakesak; bulardan *külgāri*, *külbāri* – *kaltakesak* soʻzining variantlari teleut, shor tillarida qoʻllanuvchi tusi oʻzgarib turuvchi *kul* soʻziga va sariq – boʻzrang maʼnosidagi *kula* soʻziga aloqador boʻlsa kerak. Chunki choʻl kaltakesagining bir turi doim tusini oʻzgartirib turadi va koʻpchilik kaltakesaklar sariq – boʻz, boʻz rangda boʻladi. Fikrimiz isboti uchun “Devoni lugʻotit turk”dagi *kul(ä)* va *kulār* – *kul* (zola) va “shishuvchi” maʼnosidagi soʻzlarni keltirishimiz mumkin. Qaysiki, choʻl kaltakesagi va echkiemar kishini koʻrishi bilan qorinlarini shishirib, vashillagan ovoz chiqarib, tusini oʻzgartirib yuborsa, oʻsha kaltakesaklarning turi *buqalamun* (xameleon) deb ham yuritiladi. *kalās* (*kälās*), *kälāz*, *kelās*, *kelār* soʻz variantlarining oʻzgarishi taxminan quyidagicha boʻlgan: *kalar* > *kelar* > *kalas* > *kalās* > *kalaz*); *kömmä//kömač//kömäč* (Bogʻ., Pad., Chor., Mach.) – oʻchoqda, tandirda choʻqqa koʻmib pishirilgan non. Sol., DLTda *kömač*– oʻchoqda choʻqqa koʻmib pishiriladigan non; NALda *komač*– qoʻrga koʻmib pishirilgan non: koʻmočdon – koʻmoch pishiriladigan oʻchoq (NAL: 326); oʻgʻuz shevalarida *köma* 1) qozonda pishiriladigan non (odatda joʻxori unidan boʻladi); 2) chigʻiriqning katta gʻildiragini aylantiradigan kichik gʻildirak, shesterna (NAL: 148)<sup>49</sup>, Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalarida *kömäč* esk. chigʻirning katta va kichik tishli gʻildiraklari. Alisher Navoiy *-mach* (-ma+ch) bilan yasalgan *tutmach*, *umach*, *koʻmach* kabi soʻzlar haqida maʼlumot berar ekan, bu soʻzlar eski oʻzbek tilidan tojik-fors tiliga ham oʻtib, oʻzlashganini koʻrsatgan<sup>50</sup>. OʻTILda: 1. *Koʻchib ketar vaqtida Zebo Yozi kelsa yer deb, bir oz unni koʻmoch qilib, qoʻrga koʻmib ketgan ekan.* (“Yozi bilan Zebo”) 2. *Oʻz koʻmochiga kul tortmoq* – “oʻz manfaati uchun ishlamoq, oʻziga-oʻzi qaygʻurmoq” maʼnosidagi ibora ham mavjud (NAL: 415)) kabi soʻzlar tahlilida yoritildi.

Yuqorida keltirilgan soʻzlardan tashqari, Boysun-Shoʻrchi guruh shevalarida qadimgi turk, eski turk va eski oʻzbek tili yodgorliklarida qoʻllangan anchagina soʻzlar uchrashi kuzatiladi. Bu soʻzlar baʼzi fonetik va semantik oʻzgarishlarni hisobga olmaganda, asosan, mos keladi (1-jadval).

1-jadval

Boysun-Shoʻrchi guruh shevalari	Urxun-Enasoy yodgorliklari	Ad. orf.
boz	böz (Pam, 373)	boʻz (rang)
qut	qut (Pam, 415)	baxt, baraka
tävušqan	tabi:šyan (Pam., 425)	quyon
žuča, juča	jujqa (Pam., 62)	yuqa
jegači	ägäč (YePT., 41.)	egachi, opa

<sup>47</sup> Юдахин К. К. Вклад в таджиковедение. Труды института языка и литературы АН Кирг. ССР, вып. VI. – Фрунзе, 1956. – С. 51.

<sup>48</sup> Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962.

<sup>49</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. А-3. Э.И.Фозилов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1983.

<sup>50</sup> Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. – Л., 1925.

QBN		
tüzü: //tüzük	tuzuk	tuzuk
uq	uq	uqmoq
žit // jit	yit	yo‘q bo‘lmoq
qī:lī:q	qī:lī:q	qiliq, xarakter
DLT		
qut	qut	baxt, baraka
ajaq	ajaq // azaq (I, 96, 112)	Oyoq
qu:ürmäč	qoyurmač (I, 454)	Qovirmoch
pačaq	pučuq (I, 358)	puchuq, pachaq narsa, ezilgan
tülläk	tüläk (I, 403)	yungini to‘kkan hayvon
mäji:šti	majušti: (III, 206)	egildi, yopishdi
tor	tör (III, 133)	uy turi
qorlandı	qorlandi: (III, 214)	achidi, yetildi(bu so‘z qī:mī:z, müsälläs va bozä kabi ichimliklarga nisbatan qo‘llanadi: bozä qorlandi, qī:mī:z qorlandi, müsälläs qorlandi)

1-jadval. Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarida qadimgi turk, eski turk va eski o‘zbek tili yodgorliklarida qo‘llangan so‘zlar

BShGSh lug‘at tarkibida ma‘nolarida o‘zgarish bo‘lgan ko‘pgina tarixiy so‘zlar, arxaik elementlar uchraydi: *adāq* – oxir, so‘ng, oyoq; *almut* //*ālmurut*//*nāšböti*: – nok; *Ahmār* (ar. *qizil*) – erkak va ayollar ismi; *bākavul* (eski o‘zbek tilida xon dasturxonchisi, bosh oshpaz) – to‘ylarda ta‘minot boshlig‘i, oshpaz; *bāši:r* (ar. *xushxabar keltiruvchi*) – erkaklar ismi. *bulamī:q* (<bulamog‘) – ovqat nomi; *gālā* – (toj. *to‘da*, *to‘p*); *hayvonlar to‘dasi*; *žaryunčaq* – qo‘l tegirmoni; *tolan* – otning yoshiga ko‘ra nomi (<besh yashar ot); *qudrā* (<toj. xudro‘) – o‘zicha o‘sgan, yovvoyi, ildizdan chiqqan: qudra tol, qudra gul; *xoti:k* (<xuduk) – xo‘tik, eshakning bolasi; *yor tabaq* – o‘rik daraxtidan ishlangan kosa: jit 1) yo‘q bo‘lish; 2) jirtmoq; *paži:kästā* //*ājäl* // *zāji:pa* – ayol, xotin, oila; *žesi:r ājäl* //*tül* – eri o‘lgan ayol; *xaltākōti*, *kenžā*, *surpā qaqtī*: (Boy., Ink., Pad., Sho‘r.) – eng kichik, kenja farzand; *nusxa*//*qursaq* (Boy., Sho‘r.) – otasi o‘lganda onasining qornida qolgan yetim bola, agar qiz tug‘ilsa ismini Nusxa, Misqol qo‘yadi; *qī:jāmātli*: (Boy., Qum., Chor., Pad.)//*qī:jāmālli*: (Jar.) – tutingan; *jemčakdāš* (Boy.) – onasi bir, otasi boshqa farzandlar. Shuningdek, begona bo‘lsa ham bir onani emishganlar; *sayi:r* // *sayi:ra* – ota-onasi yo‘q farzandlar; *i:järtmä*// *i:järčän* (Boy.) – o‘gay bola; *sī:jraq* – tizzadan pastki oyoqqacha bo‘lgan joy; *put* 1. oyoq, sonning oyoqqacha bo‘lgan qismi; 2. pud (og‘irlik o‘lchovi); *büji:r*; *žülü:n*//*haram tāmī:r* – orqa miya, harom mag‘iz; *žülü:q* (Chor., Pad., Ink.) – og‘izning ikki cheti; *urt* (Boy., Sho‘r.) – bet-yuzning pastki qismi, lunj. Og‘izning lab uchiga tutashgan joyi, og‘izning ichki tomoni; *qoša:uč*//*qoši:yī:č* (Jar., Boy.) – juft hovuch; *jeññāk* – iyak, pastki jag‘; *qabatī*: (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.) – yoni; *palbāyar* (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.)//*pālvi:n* (Xat.) – kurak (umuman, yelka kuragi); *qajazmaq* (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.) – qazg‘oq, soch kepagi; *qī:nži:r* (Boy., Sho‘r.) – oriq, ozg‘in kishi; *mi:nži:q* (Boy., Sho‘r., Jar., Besh.) – pinj; *čārānā* (Boy., Sho‘r., Qum.) – qo‘zi, uloq, buzoq tug‘ilganda badaniga yopishgan shilimshiq modda (qo‘y, echki, sigir bolasining ustidagi o‘sha *čārānā* (choroyna)ni yalab oladi, agar yalamasa bolasiga qaramay, emizmay ketadi); *čī:naq*//*püččā* (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.) – 1.

qulog‘i kemptik odam; 2. qulog‘i kichkina echki; chinaq yechki; 3. yomon odam kabilar shular jumlasidan.

“Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarida leksik-semantik dialektizmlar” deb nomlangan ikkinchi bobda BShGShda leksik-semantik dialektizmlar, leksik dialektizmlar tasnifi, semantik dialektizmlar borasida so‘z yuritilgan.

Umumxalq o‘zbek tilining asosi hisoblangan tub o‘zbekcha so‘zlar fonetik o‘zgarishlar bilan tadqiq qilinayotgan shevalar uchun ham, boshqa qardosh turkiy tillar uchun ham umumiylikka egadir (2-jadval).

2-jadval

Boysun-Sho‘rchi shevalarida	Qozoq tili	Qoraqalpoq tili	Qirg‘iz tili	Ozar.tili	Tatar tili	Ad.orf.
bāvī:r	bauī:r	baуыр	boor	bagыр	baur	jigar
sūjāk//sūñqak	sujek	sujak	sook	sumuk	soyak	suyak
arī:q	arī:k	arī:k	arī:k	arī:x	arī:k	oriq
arqa	arqa	arxa	arqa	arxa	arka	orqa
žavī:n	žauī:n	žamgī:r	žamgī:r	jagī:š	jangī:r	yomg‘ir

2-jadval. Tub o‘zbekcha so‘zlarda fonetik o‘zgarishlar

**O‘zbekcha (umumturkiy) so‘zlar.** O‘zbek dialektlari lug‘at tarkibidagi kabi BShGShda o‘zbekcha (umumturkiy), mo‘g‘ulcha (mo‘g‘ulcha-umumturkiy), tojikcha, arabcha unsurlar keng qo‘llanadi. Shuningdek, uyg‘ur tili orqali xitoy tilidan o‘tgan elementlar ham uchraydi.

Turkiy tillar oilasiga kiruvchi tillarda lug‘at tarkibi va grammatik tuzilishi jihatidan o‘xshashlik bor. Bunday o‘xshashlik elementlari mo‘g‘ul, tungus-manchjur va turkiy tillar o‘rtasida bo‘lishi juda xarakterlidir. Tillar va shevalardagi bu kabi o‘xshashliklar tasodifiy hodisa bo‘lmay, ularning paydo bo‘lish negizi bir ekanligini ko‘rsatadi<sup>51</sup>. Bunga mo‘g‘ul, tungus-manjur tillari va shevalari bilan bir xillik tug‘dirgan so‘zlarni ham qo‘shish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Boysun-Sho‘rchi shevalari	Urx.-Enas.yod gorlik lari	DLT DTS	“Qutadg‘u bilig”	Uyg‘ur tili	Qozoq tili	Qoraqal poq tili
žer//jir jer	jär, jir	jir jer	jir, jer	jer	žer	žer
qāš	qaš	qaš	qaš	qaš	qas	qas
čāč//čāš				čač	šaš	šaš
kök	kök	kök	kök	kök	kök	kök
tör, tört	tört	tört	tört	tö(r)t	tört	tört
toxsān	toqquzön	toxsan	toksan	toxsan	toqsan	toqsan

<sup>51</sup> Ғози Олим Юнусов Ўзбек шеваларининг таснифидан бир тажриба (латин алифбесиди) Тошкент, 1936; Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. – М., 1959; Нажимов К. Антропологический состав населения Сурхандарьинской области, ТСАГУ, Нов. Сер. 143. – Тошкент, 1958; Мусабаев Г. Г. Современный казахский язык, I. – Алма-Ата, 1959; Владимирцов Б.Я. Турецкие элементы в монгольском языке. Записки ВОРАО, том XX, вып. 2,3. – СПб, 1911; Владимирцов Б.Я. Географические имена Орханских надписей. Монгольское Нюкр. ДАН, 1929.

si:z,silär	si:z	siz, silä		siz, silä	siz	siz
hāzi:r, hazi:r, jendi	äm, ämti	jemdi			qazir	Qazi:r
<b>Qirg'iz tili</b>	<b>Turkman tili</b>	<b>Tuva tili</b>	<b>Xakas tili</b>	<b>Mo'g'ul tili</b>	<b>Tungus tili</b>	<b>Ad.orf.</b>
žer	jer	čer	čir	gazar	–	yer
qas	gaš	havak	kömiskä	xömsög	–	qosh
čač	sač	qirbin bašdügü	sas	üs ān	–	soch
kök	gök	kök	kök	xöx	–	ko'k
tört	dört	tört	tört	döröv/ dörvön	–	to'rt
toksān	togsan	tozan	toyizon	ir en	–	to'qson
siz, si:lär	siz	silär	siler /sirer	či	–	siz
azi:r	xāzi:r	am	–	odoā, odooxon	–	hozir

3-jadval. Boysun-Sho'rchi guruh shevalarining mo'g'ul, tungus-manjur tillari va shevalari bilan qiyosi

**Leksik dialektizmlarning tiplari. Sof – leksik dialektizmlar.** Bunga o'zagi adabiy tilimizda bo'lmagan mahalliy so'zlar yoki BShGShda uchraydigan ayrim yasama so'zlar kiradi. Mas., *vässä* (Sho'r., Boy., Jar.) – uylarda to'sinlar ustiga terilgan yog'och bo'laklari; *oyur//keli://keli:čä* (Boy., Sho'r., Qum.) – hovoncha; *kaltača* – fufayka; *kāmāk* (Boy.) – urchuqning ipni aylantirish uchun maxsus o'yilgan joyi; *xuman* (Jar., Qum.); *dāššöjä* (Bog'., Chor.) – qo'l yuviladigan maxsus idish (< f.-toj.: *dast shuyak*, *dast* – qo'l, *shustan* – yuvmoq); *dölki:čä//dönki:* (Boy., Besh.); *tī:rna::uč*<sup>52</sup>; *čaš* (Boy.) – limmo-lim, to'la, ko'p; **tam** (S-D) – “uy, xona” ma'nosida: *näprämäč // mäpräč* (Boy.); *kögän* (Boy.)<sup>53</sup>; *ni:šxort* (Boy.) ... kabilar.

**Semantik dialektizmlar.** Bunga adabiy tildagi so'zlar bilan morfem tarkibi bir xil bo'lgan, lekin ma'nosiga ko'ra farqlanadigan sheva so'zlari kiradi: *ješi:k* (Boy.) – hovli; *talli:* (Sho'r., Jar., Qum., Boy.) – mazali shirin; *hājät* (Boy.) – bog'cha, hovli; *či:l* (Boy.) – kakliksimon qush; *mi:jä* (Boy.) – to'yimli ozuqabop yovvoyi o'simlik; *žürt* (Boy.) – cho'ponlar bahorda, yozda o'tov tikib o'tiradigan joy; *güm* (Boy.) – 1. yo'q bo'lib ketmoq; 2. suvning chuqur joyi; *pi:di:nä* (Boy.) – 1. yalpiz; 2. qishloq nomi va sh. k.

**Qarindoshlikni bildiruvchi atamalar.** *ata//dada* – ota; *jenä//enä* (Boy., Sho'r., Jar., Qum.), *ačä// äžä* (Boy., Bog'.), *tötä//bi:ji:* (Boy.) – ona; *ženge* – o'zidan katta qarindoshlarining xotinini shunday ataydi; *jāznä//žezžä//žezdä//žeznä* – pochcha; katta opa, xola, amma, bo'lalarning eri, umuman, qarindosh-urug'larning eri shunday ataladi; *abi:sī:n* (Boy.) // *āvsī:n//ā:sī:n* – aka-ukalarning

<sup>52</sup> Щербак А. М. О характере лексических взаимосвязей тюркских, монгольских и Тунгусо Маньчжурских языков. Ж. ВЯ, № 3, 1966; Боровков А.К. Узбекские говоры Наманганской области, Научные Труды ТашГУ им. В. И. Ленина, вып. 211. – Тошкент, 1963.

<sup>53</sup> Файзиева Х.Ч. Бойсун-Шўрчи шеваларининг баъзи лексик хусусиятлари. Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Тошкент, 1983.

xotini, yaqin qarindoshlarning xotinlarini shunday atashadi; *ul* – o‘g‘il; *čaqa//čaqalāq//böväk//böbak//ni:nni*: – chaqaloq; Qiyos: And. jiji; *bälä//bäččä*–1. bola, farzand; 2. yosh bola ma‘nosida; *bäjbi:če//bejčä//bäjčä//jejčä//bi:bi*: – 1. birinchi xotin, katta xotin; 2. murojaat uchun so‘z kabi.

Mazkur bobda leksik dialektizmlar, shuningdek, kishi a‘zolarining nomlari (*āvuz//avi:z//aü:z* – og‘iz; *aja* (Boy.) – kaft; *bāvur//bav:r//bā:ur* – jigar; *borbaj* – oyoqning boldirdan pastroq, oshiqdan yuqoriroq qismi; *žā:ri:n*; *želkā//i:ji:n* (Boy., Sho‘r., Jar.)//*kift* (Xat.); *maññäj // mañlāj*; *ömgän//ömrā://köks*; *ži:jāk* (Boy., Jo‘r.); *ži:rri:q* (Boy.); *ži:lti:r baš*(Boy.); *lābāk* (Boy.); *čaññal* (Boy.); *oral*;

**hayvonot dunyosiga xos atamalar** (zoonimlar): a) *qoj: töl* (Boy., Jar.) – qo‘y va echkilarning tug‘ish vaqti; *bārrā* (Boy., Qum.) – yangi tug‘ilgan qo‘zining go‘shiti; 2) ko‘k o‘simlik. 1. mayin, ko‘k o‘simlik; 2. yosh; 3. yumshoq; *ši:rbāz* (Boy., Sho‘r.) – 6 oydan bir yoshgacha bo‘lgan qo‘zi; *toqli:* (Qum., Boy., Sho‘r., Jar.) – bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan qo‘y; *tusāq* (Boy., Sho‘r.) – 2 yashar qo‘y. Sol., qq. tusaq – ikki yashar qo‘y; *ši:šāk* (Boy., Sho‘r.) – 3 yashar qo‘y; *āvāč*– ikki-uch yoshdagi qo‘y (Qo‘sh, 75); *yunanča* – 2-3 yoshli mol (Qo‘sh, 93); *yunan savli:q* – uch yoshli qo‘y; (Qo‘sh, 93). 3-4 yoshli mol; uch-to‘rt yashar nasldor qo‘chqor (Qo‘sh, 93); *čari:* (Boy.) – 1. to‘rt yashar qo‘y; 2. ism; qq. *yunan//yunan yoč//yunan savli:q* – uch yoshli qo‘y; 3-4 yoshli mol; uch-to‘rt yashar nasldor qo‘chqor; *pāñži:*(Boy., Sho‘r., Jar., Qum.) – 1. besh yoshli qo‘y; 2. ism; *avzi:* //tolyan (Qung‘.) – besh yashar qo‘y; *mañni:* (Boy.) – olti yoshdan o‘tgan qo‘y; *hañni:* (Boy.) – yetti va undan katta yoshdagi qo‘y; *qaratöbäl//töbäl* (Boy., Sho‘r., Qum.) – qora rangli, peshonasida kichkina oq belgisi bo‘lgan mol (echki, qo‘y, ot); *xanāzāt* (Boy.)//*xanāki:* (Sho‘r.) – yoshligidan qo‘lda boqib o‘stirilgan mol; *či:rtemčāk* (Boy., Pad., Chor., Dasht.) – chirt-chirt (Kof., Mun.) – suti kam echki, qo‘y; *qi:rri:q qoj* (Boy., Sho‘r., Qum.) – juni tikka-tikka bo‘lgan qo‘y; *di:gi:l//či:balan //čüvälan* (Boy., Sho‘r., Qum.) – junlari jingalak, quyrug‘i uzun qo‘y; *qočqār//yočqar* (Boy., Sho‘r., Jar.) – erkak qo‘y. Qiyos., *qoč*– qo‘chqor. Bu o‘g‘izcha, asli قچكار *qāčinar*dir (DLT, I, 311); turkm. *goč* – zotdor qo‘y, qo‘chqor (TDS, 183); qq. *γāč*(Qo‘sh, 93); *dägār* (Boy., Sho‘r., Qum.) – 6 oydan oshgan erkak qo‘zi; *qi:sī:r qoj* (Boy., Sho‘r.) – tug‘may qolgan qo‘y; *töraj* (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.) – 1. qo‘ylarni sog‘ish paytida tinchlantirish uchun aytiladigan so‘z. 2. bolasi o‘lgan qo‘y; *toraj* – cho‘chqa bolasi; *č:bi:č*(Boy., Sho‘r., Qum., Jar.) – olti oylik tug‘magan echki bolasi; *sāñāč* (Boy.) – bir yoshli erkak uloq; *tü:čä//tuvčä*(Boy., Sho‘r.) – ikki yoshli echki; *sārkā//sarkač//saññač* (Boy.) – bichilgan erkak echki; *gösām sārka* (Boy.) – katta yoshdagi serka; *aqqarabāš*(Boy.) – boshi oq echki, qo‘y, uloq, qo‘zi. Ayrim qipchoq shevalarida pilla qurtini ham *aqqarabaš* deb yuritadi<sup>54</sup>; *qaračallaq* ( Boy.) – pochalari oq yoki qora echki; *žamrāp ketmaq* (Boy.) – uloq-qo‘zilarning qamab qo‘yilgan joyidan chiqib, onalariga qo‘shilib ketishi singari sheva so‘zlari tahlil qilingan.

Ushbu bobda, shuningdek, otlarning yoshi, tusi, zoti, jinsi va ba‘zi xususiyatlariga ko‘ra nomlanishi, ot anjomlari, tuyaning yoshi, jinsi va ba‘zi

<sup>54</sup> Файзиева Х.Ч. Бойсун-Шўрчи шеваларининг баъзи лексик хусусиятлари // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Тошкент, 1983. – Б. 8.

xususiyatlariga ko‘ra nomlanishi, eshakning yoshi, jinsi va ba’zi xususiyatlariga ko‘ra nomlanishi, mushuk va itning jinsi hamda ba’zi xususiyatlariga ko‘ra nomlanishi, parranda va darrandalarning jinsi hamda ba’zi xususiyatlariga ko‘ra nomlanishi, yovvoyi hayvon va hasharotlarning jinsi va ba’zi xususiyatlariga ko‘ra nomlanishi, o‘tov jihozlari va uning qismlarining nomini atovchi sheva so‘zlari tahlilga tortilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Boysun-Sho‘rchi shevalarida etnografiyalar**” deb nomlanib, unda Surxondaryo etnografiyasining tadqiqi, Surxondaryo etnografizmlarining mavzuviy guruhlari hamda ushbu toifa so‘zlarda o‘zlashgan so‘zlar, xususan, fors-tojikcha so‘zlar, arabcha so‘zlar, mo‘g‘ulcha elementlar, xitoycha elementlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, BShGSh leksikasining hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati masalasi ham yoritilib, shu tarzda tadqiqotning umumiy konsepsiyasiga aloqador xulosalar berilgan.

Surxondaryo etnografizmlari S.N.Tursunovning<sup>55</sup> ishlarida, etnografizm larning lingvistik talqini esa A.Amonturdiyev, N.Amonturdiyev, N.Qurbonazarova singari tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan<sup>56</sup>.

Ushbu bob doirasida BShGSh etnografizmlariga tegishli: **kiyim nomlari, xususan, boshga kiyiladigan va o‘raladigan matolar nomi** (*qarā tabōš* (Qum.) – qora materialdan mashinada tikilgan do‘ppi; *quraxšāppōš* (Boy.) – oq matoga har xil rangdagi material (quroq)lardan tikilgan, yosh bolalar kiyadigan do‘ppi; *kālāpōš* (Qum., Kat.)// *kālābāš* (Jar.); *gūldōzi*//*patdōzi*: (Boy., Sho‘r.); *toppi*//*taqī:ja*//*taxī:ja* (Boy.); *či:raz*; *ki:jgi:č* (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.); *sharromāl* (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.); *yožāpočaq romal*; *pi:stāpočaq romal*; *qazna čatī:r*//*ajli čatī:r*// *i:t ti:ši*//*avḡan tori*; *pešānabānd*//*pešānāmāt*//*nāzi:pešānā*; *čārsī*: (Boy., Kof., Xat., Lay.); *qī:jī:q* (Boy., Sho‘r.); *kūrttā* (Boy., Sho‘r.); *jeḡḡak* (Boy., Sho‘r.)... kabi);

shuningdek, **ustki va ichki kiyimlar, ularning qismlari, bezaklar hamda oyoq kiyim nomlari** (*želāk*//*jelāk* (Boy., Sho‘r., Qum., Jar.); *ton*//*čāpān* – avra-astarli, paxtali ustki kiyim; *guppy*//*guppy:čā*//*kāltāčā* (Boy., Sho‘r.) – bolalarning paxtali, yengsiz ustki kiyimi; *ašxorak* (Chor., Pad., Ink.); *i:čči:k*//*vāškārčā* (Sho‘r., Boy.) – ayollar kiyadigan yengsiz jeletka, nimcha; *av* (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.)//*yi:štak* (Boy., Sho‘r.) – ishton og‘i; *čalyaj* (Boy., Sho‘r., Bog‘., Chor., Besh.); *čābūv*//*čābū*; *ži:rmač*; *čalmā*; *mālāpā* (Boy., Sho‘r.); *bāfta* (Bog‘.); *hāpāmāt*//*xapabānd*; *leti:bā*//*lātibā* (S-D); *buvmaq* (Boy.); *bi:bi:šaq* (Sho‘r., Elb.); *pančā* (Boy., Besh., Sho‘r.); *si:nsi:lā*//*si:lsi:lā* (Boy., Sho‘r.); *bezbānčā*; *šāttā*(Boy., Sho‘r.); *ḡuppa*(Boy.) ... kabilar);

**uy- ro‘zg‘or buyumlari va ularga aloqador narsa nomlari** (*qī:lāv* (S-D) – tig‘; qilich, pichoq tig‘i; *qasnāq* (S-D) – gardish; *qasmaq* // (Boy., Sho‘r.) – dumaloq gardishning uch tomonidan ip bilan bog‘lab, kechasi sut, qolgan ovqat,

<sup>55</sup> Турсунов С.Н. Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё этнографияси. – Тошкент., 2006.

<sup>56</sup> Омонтурдиев А. Ж. Профессионал нутк эвфемикаси (чорвадорлар нутки мисолида): Филол фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2009; Амонтурдиев Н. Р. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари: Фил. Фан. бўйича фалс.док. (PhD) дисс.. – Гулистон, 2020; Курбаназарова Н.Ш. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи: Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс.. – Термиз, 2021.

go'sht qo'yilib, ilgakka osib qo'yiladigan chamberak; *ni:mpi:jälä*(Boy., Besh., Mach., Bog'.) – katta piyola; *žapyi:č* (Sho'r., Jar.); *čümäk* f.-toj. *umäk*; *li:ki:bi://li:küvi:* (Bog'. , Boy., Chor.); *tābatāš* (Boy., Mach; *jākādaz* (Boy.) // *gi:rdi:xanä*(Boy., Bog'. , Sho'r.); *kämpäl*; *dasti:q//türsäk* (Boy., Sho'r., Jar., Qum.); *dāsti:xkoz* (Sho'r., Jar., Qum); *lölä bālī:š*; *tošanči//töšämčä//šalčä*; *āq jen* (Sho'r.); *γajari: sarala* (Sho'r.) (sari:qala); *qulāxli gi:lem* (Sho'r.); *šeşa* (Boy., Sho'r., Qum., Jar.); *dāsmal* (Sho'r., Boy., Jar., Qum.); *däsbäk//čači:q* (Boy., Sho'r., Jar., Qum.); *keli:/keli://oγurča* (Boy., Sho'r., Jar., Qum.); *keli:sap* (Chor., Pad., Jind., Oqar., Besh.); *karčä* (Boy., Bog'. , Mach.) (f.-toj.:kord + uzb. -ča); *darsayan//dast i:γan* (Chor., Qay., Kof., Sho'r., Jar., Qum.); *nampär*; *γor tabaq* (Boy., Sho'r.); *täjpän* (Sho'r.); *karsan* (Boy., Sho'r., Qum.); *jāylāyi:* (Sho'r.); *γoluča//yoli:čä*(Sho'r.); *xuman* (Jar.); *qarabaji//qumyan//čajdi:š//čäjdüš* (Boy., Sho'r., Jar., Qum.); *attäbä-oftoba*; *taqi:r//šaraqaj* (Boy., Sho'r.)//*termä käti:k* (Jar., Qum., Sho'r.) ...kabilar).

**Taom nomlari** (*ābroyan* (Boy., Bog'.) – palov tayyorlashda qozonga guruch solgungacha bo'lgan holat (yog'da qovurilgan go'sht va piyozning ustiga suv solgandan keyin sabzisi bostirilib (sabzi qovurilmaydi), hammasi birgalikda qaynatiladi); *šüllä*(Sho'r.) – xo'rda; *sapi:āš*(Boy., Chor., Ink.) – guruchi qaynoq suvda ivitib qo'yilib, keyin “abrog'an”ga solib pishirilgan osh; *uvmäč//umäč äš*(Besh., Boy.); *pi:čäk nan* (Boy.); *sozma* (Boy); *qati:rma* (Boy., Jar., Sho'r., Qum.); *čakki*; *čäväti* (Boy.); *čälāb* ... kabilar);

**bolalar o'yinlarining nomlari** (*žāši:mmäčaq//daši:mačāq* (Boy.) – bekinma choq; *lankä*; *qadämätäjax* (Boy.) – ikki ishtirokchidan iborat o'ziga xos “galka” o'yini; *axsüjäk* (Chor., Pad., Ink., Dasht., Sar., Jin., Bot.) – kechasi suyak otib o'ynaladigan o'yin; *žippätax* (Boy., Sho'r., Jar.); *bābältäkä* (Boy.); *dürrä//pāššā vāzi:r* (Boy., Sho'r., Qum.): *tī:xmaq* (Boy., Sho'r.); *hādursä*; *hālgi:nčäk*; *ašši:q*; *či:li:k* (Boy., Jar., Qum., Jar.); *kočmāk* (Boy., Sho'r.); *hür//hi:t*; *čarpäčaq dāldāl*; *züv-züv* (Boy., Sho'r., Jar.); *žun top* (Boy.); *utti:* (Boy., Sho'r., Qum.); *urdi:-qašti:* ojini kabilar);

shu singari: **ma'raka va marosimlarning nomini bildiruvchi so'zlar, to'y marosimlari nomi, sunnat to'yi bilan bog'liq marosim nomlari** (*jetäkži:rti:š*– tug'ilgan qizni kelin qilish niyatida o'g'il bolaning otasi yo onasi chaqaloqning ko'ylakchasi etagini yirtib qo'yish odati; *jessši:kši:pi:rdi:* – kelin qilish niyatida o'g'il bolaning onasi tug'ilgan qizning uyini ertalab kelib supuradi; *žalaqqi:zartar* (Jar., Sho'r., Kof., Xo'j.) – fotiha to'ydan oldin kuyov tomondan qiznikiga mol so'yib olib borish; *pāti:jätöj* (Boy., Jar., Qum., Jar.); *qāpköti:* (Qum., Boy.); *qara*; *i:žap* (Boy., Sho'r.)//*ni:ka: //neka qi:jmaq* (Jar., Qum., Boy.); *i:žap toj* (Boy.); *i:žapli:klltoqqi:z* (Boy.); *qanži:γa* (Boy., Sho'r.); *qari:ži:lik* (Boy., Sho'r.); *toq qi:ztabaq*; *qi:zapqāčär* (Boy., Sho'r.); *ajaxbasär//čačsi:jpatar//ajnakörsätär qolušlatar*; *či:γi:t*(Boy., Besh., Bog'. , Sho'r., Qum.); *kämpi:rvöldi//i:tī:ri:llätär* (Boy., Sho'r., Jar., Qum.); *ži:pagi:lüv*; *ješi:gi:lüv* (Boy., Sho'r.); *jeläkbāši:*; *určuyi;ji:rüv*; *žavtögüv* (Boy., Sho'r., Jar., Qum.); *žoltora//žolqada* (Boy., Sho'r.); *žüz kori:mči:*; *qi:z äši:* (Boy., Sho'r., Jar., Qum.); *torkünlätär* (Sho'r., Qum.); *ki:ji:t* ...kabi.

Shuningdek, **kasallik nomlari** (*gömăčăk* (Boy., Sho‘r.) – ko‘zga chiqadigan yara; *qārasū*: (Boy., Sho‘r., Qum.) – ko‘ngil ayniganda qusish oldidan og‘izdan keladigan suv; *sari:qoti:r*; *tāyaj*, *lăpšă* (Boy.); *vărăžă* (S-D); *qojanči:q*; *aji:n* (Boy., Sho‘r., Jar., Qum.); *čār* (Boy.); *čaxmaxlav* (Boy., Besh., Sho‘r.); *i:ji:q* (Boy.); *sī:zlavī:q* (Boy., Sar., Pad., Sho‘r.); *bōjōsār* (Boy., Sho‘r., Besh.);

iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan yovvoyi o‘simliklar, madaniy o‘simliklar, mevali va mevasiz daraxtlar nomlari; gul nomlarining dialektal jihatlari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar yoritilgan.

BShGSh leksikasi o‘zlashgan qatlam tahlilida: 1) boshqa tillardan kirgan so‘zlarning nutqimizda doimiy qo‘llanishi; 2) fonetik jihatdan o‘zlashtirilishi; 3) grammatik jihatdan o‘zlashtirilishi; 4) so‘zning so‘z yasashdagi faolligi; 5) semantik jihatdan o‘zlashtirilishi; 6) chet so‘zlarning “kalka” orqali berilishi<sup>57</sup> aniqlandi.

Ma’lumki, ruscha-baynalmilal affikslar odatda qabul qilingan so‘zlar tarkibida qo‘llanadi: *jōlkă* – yo‘lcha (tratar); *ădamčŭk* (Boy.) – jussasi kichkina odam: *săjdăgi hăjăt Parda ădămčŭkti hăjăti* (Chor.). Qiyos., ozar. *odamčiy*- 1) odamcha (chelovechishko); 2) bechora (bednyaga) (Arl, 221); yana qiyoslang: O‘zbekistondagi o‘troqlashgan ruslar talaffuzida: *barančŭk* – yosh o‘g‘il bola; tatar tilida: *ali:rni:k+ali:rni:k* – rvach<sup>58</sup>. *čöpăk* (Surx.) – kichkina cho‘plar: *čöpăklărdi: teri:bă*.

Boysun-Sho‘rchi guruh shevalaridagi ba’zi tojikcha so‘zlar o‘zbekcha qo‘shimchalar bilan ishlatilaveradi. Masalan, *dekčă*(f.-toj.– deg + o‘zb.-ča, *gŭlči*:– f.-toj. – gul + o‘zb.-či), *jolăki*: <o‘zb. yo‘l +f.-toj. –aq + ki (yo‘l ustidagi): *jolăki măjišăt*. Sol.: tojik tilida *rohaki*; *salqŭ*://seliqa – siz <f.-toj. – saliq; o‘zb.-siz-fahmsiz, didsiz: *dărmănsi:zli:k*<f.-toj. darmon + o‘zb.-siz + -lik; *măjdălă* <f.-toj. mayda + o‘zb.-la, *kŭlčă* <f.-toj. – kul + o‘zb.-ča: *năn pi:škŭncă kŭlčă sabbolădi*: (kuyib ketadi) va b.

BShGShda ba’zi arabcha so‘zlarni tarkibiy qismlarga ajratish qiyin. Mas., *gavzămmŭr* – f.-toj.: gov+ar. zanbur<găvzanbur – qovoqari, katta ari (r. shmel); *sandŭqči*: ar. sandiq + o‘zb.-či; *hămmălkăšli:k* – hammolçilik <ar. hammol (asli *hamala* – *tashimoq* fe’lidan) + f.-toj. affiksoid + o‘zb. -lik; *soflik* – *toyriлик* – ar. *Sofi*: – taqvodor, azon aytuvchi + o‘zb. -lik; *iškălrăq* <ar. *iškăl* – qiyinchilik, chalkashlik, *čatoq* + o‘zb. -roq va sh .k.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili va boshqa o‘zbek dialektlarida bo‘lgani kabi BShGShda ham bir qancha mo‘g‘ulcha so‘zlar uchraydi. Ulardagi fonetik farqlarni hisobga olmaganida, ma’nosi, asosan, mo‘g‘ul tilidagi so‘zlarga mos keladi<sup>59</sup>.

Biz ishimizda BShGShda keng qo‘llanadigan mo‘g‘ulcha (//mo‘g‘ulcha-turkcha) deb atalib kelingan ayrim o‘xshash so‘zlarni qiyos qilish bilan cheklanamiz.<sup>60</sup>

<sup>57</sup> Крысын Л. П. Иноязычные слова в современном русском языке, 1968; Вахобов М.Г. Ўзбек социалистик миллати, Тошкент, 1960.

<sup>58</sup> Ахунзянов Э. Русские заимствования в Татарском языке, –Казань. 1968, – С. 14.

<sup>59</sup> Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – Б. 224.

<sup>60</sup> Владимирцов Б.Я. Турецкие элементы в монгольском языке. Записки ВОРАО, том XX, вып. 2,3. СПб, 1911. – 156-181 С.; Рахимов С. Сурхондарё областидаги ўзбек шевалари лексикаси. Номз.дис. – Тошкент,

<b>Boysun-Sho‘rchi shevalari</b>	<b>Mo‘g‘ul tili</b>	<b>Ad.orf.</b>
aryumāq	argamak	arg‘umoq
ārči:	arčix	archimoq
āv	Av	ov
āvā	avga	amaki
abi:si:n//abusun	avisan	ovsin
ādāy//adaq	adag	odoq
ajmāy, ajmāq	ajmag	aymoq (//urug‘)
ājran//ajran	ajrag	ayron (//qimiz)
ala	alag	ola (пестрый, разноцветный)
ālmā//almā	alim	olma
āltin	altan	oltin
arpa	arvaj	arpa (yachmen)
aslān	arslan	arslon (lev)
āxsaq	asag	oqsoq (хромота животных)
ākā	ax	aka
bāl	bal	asal, bol
bā:ursaq	boornog	bo‘g‘irsoq
bota, botalaq	botgo	bo‘taloq (verblyujonok)
böksä	bogs(on)	bo‘ksa
bojaq	budag	bo‘yoq (kraska)
buqa	bux	buqa
γunan	guna(n)	uch yoshli buqacha
γunaži:n	gunž(in)	uch yoshli sigir
gāžāk	gezek	gajak, soch
dāvān	davaa(n)	oshuv dovon
ži:l//jil	žil	yil
žavči:	zūüč	sovchi
žijdā	žigd	jiyda
laqqa	lax	laqqa (baliq)
māḥnāj	magnaj	manglay
māl	mal	mol (skot)
oḥ	onge	ungimoq (linyat)
sāv	saax	sog‘moq (doit)
taḥnāj	tagnaj	tanglay
ti:māv	tomüü	tumov (gripp)
uruy	ur	urug‘
qara	xar	qora
qut	xutag	baxt, baraka
jegāči:	egč	egachi, opa

1974. – Б. 12-27; Щербак А. М. Турк ва мўғул тилларининг ўзаро муносабати. ТПМ, № 4, 1959; Решетов В. В. Ўзбек шевалярининг классификацияси. ЎзТА журн. – Тошкент, 1966, № 1. – Б. 57-59; Щербак А. М. О характере лексических взаимосвязей тюркских, монгольских и Тунгусо Маньчжурских языков. Ж. ВЯ, № 3, 1966. Санжеев Г. Д. К вопросу о тюркских заимствованиях в монгольских языках. Лингвистический сборник В. В. Решетову. – Ташкент, 1971. – С. 29-34; Серебренников Б. А. Являются ли тюркско-монгольские параллели средством проникновения в глубины истории тюркских языков // Советская тюркология, № 6, 1980; Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. – М., 1959.

jendi:	jend	endi, hozir
jettä	ert	erta
nävkär	näkär	do'st, o'rtoq; askar

Tungus-manjur tillariga xos bo'lgan anchagina so'zlarning o'zbek tili va uning shevalaridagi so'zlariga semantik o'xshashligi ham juda xarakterlidir. Masalan, *ava* – ov, *avaga* – amakivachcha (<ava+aga), *aylag* – ovloq, *adi:rga*, *azirga* – <qad.turk adyi:r – ayg'ir, *alčanča* – alchaymoq, *anqa* – chanqamoq, *arqa* – spina, *arsalan* – arslon, *baqi:* – dangasa (qiyoslang: boqibeg'am), *baga* <yoqut, *baqa* – qurbaqa, *baj* mo'g'. *bajvaj*– xit. *bajbi* – bekor, tekin; bāy bermoq; *balta* – bolg'a, bolta; *bi:xa* – ozgina, kichkina (qiyoslang, *biča*, *pičča*, *pita*, *bita*); *bāzā:* – buza, *buda* – bug'doy, *buqa* – buqa <mo'g'.bux; *butun* – butun, *bā*– beshik, *bel* – bel (kosogor, sklon gori), *bötägä*– bo'taka, parranda jig'ildoni; *altun* (<al – qizil + tun – xit.mis) – oltin, *ölän* – boshpana (bu so'z Boysun-Sho'rchi shevasida: “öz üjim olän töšäгим” maqolida ishlatiladi); *saya* – yoqa, *sāyī:š*(doit); *saj* – sanchmoq, qoqmoq; *sā*– so'gal (mozol), *süü*– sut (qiyoslang, qad. mo'g'. tilida *sü*–*sün*~*sut*), hoz. mo'g'. tilida *süü*(n) – sut; buryat tilida *hüü*(n) – sut (moloko); *taba* – tovva (ровный bok babki), *takürkän* (evenk) – beshik. Bu so'z shevalarda quyidagi topishmoqda uchraydi: *täkür*- *täkür* - *täkürxän*, *i:či:dägi* *me:ri:bän* (beshik va bola); *talgan* – (evenk.) – un (muka): qad. turk. *talqan* – talqon. Xitoycha *tjan* szjan – qovurmoq; *ülü* (oven.) *ülüš*(qism, ulush); *urhu* – hurkish (hurkish, qo'rqish); *hājgä* <yoqut, *čajqa* – chayqa (chaymoq), *čä:* – sor, kalxatga o'xshash qush (mo'g'. sar. yoqut. sar s > č, r tushishi hisobiga a cho'ziq holga kelgan) va b.

BShGSh lug'at tarkibida tojik, arab tillaridan o'zlashgan leksik qatlam bilan birga, mo'g'ulcha elementlar va, asosan, uyg'ur tili orqali xitoy tilidan o'tgan ba'zi so'zlar ham uchraydi. Xitoycha so'zlarning bir qismi adabiy tilimizda ham ishlatiladi: *žāvān* – tepasiga ko'rpacha yig'ib qo'yadigan ko'p g'aladonli kiyim-kechak komodi. Solishtiring: uyg'ur tili va uning shevalarida *žavan*, *žavan* – shkaf, polka-xit. *szjaban* – *szja* – rama+*ban* – doska. Yana qiyoslang: o'zbek adabiy tilida *kitob žāvāni:* – knijnaya polka. *Zāñ* – jangillatmoq, zang urmoq (*gong*). Qiyos., uyg'ur tilida *žañ žañ čālmāq* xit. *čžan* – qo'ng'iroq, *goñ*; šoti – 1) shoti, narvon; 2) aravaszlik termini: äräbä šätisi.Uyg'ur tilida *šota*– trap, tirkama narvon. Bu so'z Farg'ona vodiysidagi barcha o'zbek shevalarida *šäti,šeti*, *šäti* tarzida talaffuz etiladi. Asli xitoycha *šatan* so'zining fonetik o'zgargan shaklidir.

BShGShgi so'zlarning bir qismi qadimgi turk tili va eski o'zbek tili yozuv yodgorliklarida uchraydi. Mas., *gälä* – poda: *gälädan* qāčqan ječki:dāj mañrägäni: – mañrägän. *hāvār* – ochiq yer, tekislik; *žükli:* – og'iroyoq, homilador; *žezda*// *žeznä*// *žezzä* – pochcha; *meñ*– xol: *meñli* (meng+li) – erkak va ayollar ismi; *bātmān* – 8 pudga teng og'irlik o'lchovi; *i:jri:m* – igrim – girdob; *ozbak* – sodda, to'g'ri, insofli odam; *oylaq* – uloq, echki bolasi; *otri:k* – yolg'on; *öltür* (Xat., Lay.) – o'tir; *ör* – tepalik, balandlik; *sī:rya* – ba'zi qo'y-echkilarning bo'yni, qulog'i ostida osilib turadigan o'simta; *ši:bi:tki*//*šüpi:rgi*//*žorap* – supurgi.

## XULOSA

1. Boysun, Sho‘rchi, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on tumanlaridagi o‘zbek shevalari leksik xususiyatlari jihatdan, asosan qarluq, qipchoq shevalariga bo‘linadi. Bulardan tashqari qarluq va qipchoq shevalarining aralashuvi tufayli qarluq-qipchoq, qipchoq-qarluq tip oraliq shevalar hamda tojik tili ta‘siriga uchragan o‘zbek-tojik shevalari bor.

2. Bu guruh shevalarda **alqi:ndi:, meŋ, i:jrim, mert:maq, bākävül, žukli://jükli:, žezzä//žezdä//jäzna//žezna, kömäč, i:ji:q** (kasallik), **i:ni:, gälä**(poda), **apäli:-ükäli:** (opa va uka), **üjli: - žajli:** (uy va joy), **ör** (tepalik, balandlik), **üčä čäč** kabi qadimgi turkiy til va eski o‘zbek tili yozuv yodgorliklarida qo‘llangan so‘zlarning ishlatilishi Boysun-Sho‘rchi guruh shevalari o‘zida qadimgi til xususiyatlarini saqlab kelganligidan xabar beradi. Bu bevosita o‘zbek tili tarixi va o‘zbek tilining tarixiy dialektologiyasiga aloqadordir.

3. So‘zlarning semantik guruhiga yigirmadan ortiq sohaga xos so‘z va atamalarni kiritib analiz qilinishi va ilova qilingan dialektologik lug‘atga tarixchilar, biologlar, etnograflar, geograflar va boshqa sohalar mutaxassislari uchun qimmatli material bo‘lib xizmat qiladi.

4. Shevalar lug‘at tarkibining boyishi va rivojlanishida ma‘lum darajada o‘zlashtirilgan so‘zlar (tojikcha, arabcha kabi) muhim ahamiyatga ega.

5. Boysun-Sho‘rchi guruh shevalari leksikasida shunday so‘zlar borki, ularni mumtoz adabiyot asarlarida uchraydigan so‘zlar bilan qiyoslab o‘rganish hozirgi adabiy tilimizdagi ko‘pgina izohtalab masalalarga aniqlik kiritishda katta ahamiyat kasb etadi.

6. Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarining leksik boyligi umumxalq o‘zbek tilining asosiy lug‘at fondi va umumiy lug‘at tarkibidagi so‘zlarni tashkil qiladi. Shu bilan birga ularda o‘ziga xos so‘zlar, atamalar ham mavjud bo‘lib, bunday so‘zlar adabiy til va uning ko‘pchilik shevalarida uchramaydi.

7. Boysun-Sho‘rchi shevalarida ilgari vaqtlarda umumxalq o‘zbek tilining leksikasida keng – faol qo‘llanib, davrlar o‘tishi bilan kam – passiv ishlatiladigan bo‘lib qolgan yoki hozirgi adabiy tilimizda ishlatilmay ayrim turkiy tillar, uning shevalari va yozma yodgorliklardagina uchraydigan bir qator so‘zlar mavjud.

8. Lug‘atlarimizda uchramaydigan narsa va hodisalarning aniq nomlarini bildiruvchi so‘zlar soha lug‘atlariga kiritilishi zarur.

9. Bu guruh shevalardagi ayrim so‘zlarni tahlil qilish orqali ularning tarixiy o‘zagini, tovushlar, affikslar evolyusiyasini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Shunga ko‘ra Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarining lug‘at xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish o‘zbek tili tarixiy leksikologiyasi va tarixiy dialektologiyasi uchun katta ahamiyatga ega.

10. Tadqiqot yakunlari o‘zbek shevalarini kartalashtirishda, ko‘p tomli izohli va dialektologik lug‘atlar tuzishda, hozirgi adabiy tilimizning leksik boyligi hamda uslubiy ortiqqligini ko‘rsatishda, uni Boysun-Sho‘rchi guruh shevalari materiallari bilan to‘ldiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 03/31.03.2021.Fil.78.04  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**  

---

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ФАЙЗИЕВА ХАДИЧА ЧОРИЕВНА**

**ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГОВОРОВ БАЙСУН-  
ШУРЧИНСКОЙ ГРУППЫ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации на соискании учёной степени доктора философии (PhD) по  
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Термез – 2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2022.2.PhD/Fil2412 в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.  
Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Термезском государственном университете ([www.tersu.uz](http://www.tersu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

Научный руководитель:

Махмараимова Шохиста Тухташевна  
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Маматов Абди Эшонкулович  
доктор филологических наук, профессор

Киличев Байрамали Эргашевич  
кандидат филологических наук, профессор

Ведущая организация:

Каршинский государственный институт

Защита диссертации состоится «3» «май» 2023 года в «10:00» часов на заседании Научного совета PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 по присуждению ученых степеней при Термезском государственном университете (Адрес: 200118, г. Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел: (876) 221-74-55; факс: (876) 221-71-17; e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрировано за № 138). (Адрес: 200118, г. Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел: (876) 221-74-55).

Автореферат диссертации разослан «27» «апрель» 2023 года.  
(Протокол реестра № 24 от «27» «апрель» 2023 года).



  
Б. Умуркулов  
Председатель научного совета по  
присуждению учёных степеней, д.ф.н.,  
профессор

  
А. Эшмунинов  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению учёных степеней, д.ф.н.,  
доцент

  
Ш. Ёкубов  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению учёных  
степеней, к.ф.н., доцент

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Изучение диалектной лексики в мировой лингвистике связано с диахроническим и синхроническим состоянием языка – в определении истории и генезиса некоторых слов и аффиксов, в определении лексической нормы, в решении вопросов терминологии, орфографии, в составлении карты диалектов национальных языков, также в создании многотомного словаря народных диалектов имеет большое значение. В отличие от других отраслей языкознания, диалектология ставит целью изучение своего объекта – *географически обусловленных* единиц с синтетической (фонетической, семантической, грамматической) точки зрения. Следовательно, до сегодняшнего дня исследования, проводимые в рамках диалектологии, приобрели значение главным образом в области социолингвистических исследований культурно-исторических реалий (*linguistique externe*).

В мировом языкознании еще в древности отмечалось диалектическое деление языка под терминами *варваризм, вульгаризм, солейцизм, провинциализм*. До XIX века диалектные элементы интерпретировались как отклонения от языковых норм, но в начале XIX века проявился интерес к элементам диалекта как на «национальную языковую единицу», обладающим независимым статусом и языковым значением, а со второй половины века интерес к этим элементам «обеспечивающим чистое развитие языка» возрастал. В результате в науку вошли термины *диалект, диалектные границы, диалектное развитие*. В настоящее время теоретические и практические решения вопросов дифференциации и унификации (приведение их в единую форму) диалектов по локально-социальным группам являются одной из актуальных проблем отрасли.

За годы независимости возросло внимание к развитию нашего национального языка в результате последовательных реформ, направленных на достижение конкретных целей. В результате этого был проведен ряд важных исследований по различным направлениям лексики современного узбекского литературного языка и диалектов. В действительности «каждый народ, каждое независимое государство должны уделять приоритетное внимание вопросу обеспечения своих национальных интересов, прежде всего, сохранению и развитию своей культуры, исконных ценностей, родного языка»<sup>61</sup>. В этом смысле изучение лексических особенностей некоторых диалектов узбекского языка, являющийся ярким выражением нашего национального мышления, давних традиций и ценностей, и всестороннее исследование источников современного развития являются одними из наиболее актуальных вопросов в нашем языкознании.

---

<sup>61</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони //http://lex.uz/docs/4561730

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4797 «О создании Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои» от 13 мая 2016 года, № УП-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года, № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 года, в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности» от 17 февраля 2017 года, № ПП-4479 «О широком праздновании тридцатилетия принятия закона Республики Узбекистан «О государственном языке» от 4 октября 2019 года и Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 7 октября 2010 года, № 222 «Об утверждении государственной программы по охране объектов нематериального культурного наследия, сохранению, пропаганде и их использованию в 2010—2020 годы» и других нормативно-правовых документах относительно данной сферы деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

